

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI  
VAZIRLIGI**

**ABDULLA QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT  
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI  
O‘ZBEK TILI VA UNI O‘QITISH  
USLUBIYATI KAFEDRASI**

“Himoya qilishga ruxsat beraman”  
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti dekani  
\_\_\_\_\_ f.f.n. Sh.Haydarov.  
“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2013 y.

5141100 – o‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha  
bakalavr darajasini olish uchun  
**Arolov Bekzod Eshmonovichning**

**Adabiy til va badiiy stil**  
mavzusida bajarilgan

***BITIRUV MALAKAVIY ISHI***

**Ilmiy rahbar:**

prof. X. Jo‘rayev

**Taqrizchi:**

dots. A. Musayev

BMI O‘zbek tili va uni o‘qitish uslubiyati kafedrası  
yig‘ilishining № 10. 15.05.2013 yil qarori bilan himoyaga  
tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: \_\_\_\_\_ p.f.n. Q.Yadgorov

**JIZZAX - 2013**

## **Mundarija**

<b>Kirish.</b>	<b>4</b>
<b>I Bob. Adabiy tilning og‘zaki formasi va badiiy stil.</b>	<b>7</b>
<b>1.1 Adabiy tilning og‘zaki formasi.</b>	<b>7</b>
<b>1.2 Adabiy tilimizning hayotbaxsh manbalari.</b>	<b>12</b>
<b>II Bob. Adabiy til va badiiy stilning shu kungi muammolari.</b>	<b>22</b>
<b>2.1. Adabiy tilimizning ba’zi muammolari.</b>	<b>22</b>
<b>2.2. Badiiy stil va uning boshqa uslublardan farqli tomonlari.</b>	<b>37</b>
<b>2.3. Badiiy stilning o‘rganish muammolari.</b>	<b>45</b>
<b>III Bob. Adabiy nutq va uning uslublari.</b>	<b>49</b>
<b>Xulosa.</b>	<b>54</b>
<b>Foylalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.</b>	<b>58</b>

## **Mavzu: Adabiy til va badiiy stil.**

### **Reja:**

#### **Kirish.**

#### **I Bob. Adabiy tilning og‘zaki formasi va badiiy stil.**

##### **1.1 Adabiy tilning og‘zaki formasi.**

##### **1.2 Adabiy tilimizning hayotbaxsh manbalari.**

#### **II Bob. Adabiy til va badiiy stilning shu kungi muammolari.**

##### **2.1. Adabiy tilimizning ba‘zi muammolari.**

##### **2.2. Badiiy stil va uning boshqa uslublardan farqli tomonlari.**

##### **2.3. Badiiy stilning o‘rganish muammolari.**

#### **III Bob. Adabiy nutq va uning uslublari.**

#### **Xulosa.**

## **Kirish**

**Mavzuning dolzarbligi.** Bugun ta'lim jarayonida ijobiy o'zgarishlarni yuzaga chiqarish uchun davlat ham, jamiyat ham to'la safarbar qilingan. Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbida, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Men bu masalani alohida ta'kidlab aytayotganim bejiz emas. Ona tili – bu millatning ruhidir. O'z tilini yo'qotgan har qanday millat o'zligidan judo bo'lishi muqarrar".<sup>1</sup>

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, hamma sohalarda bo'lgani kabi ilmfanda ham tubdan o'zgarishlar yuz berdi. Bu o'zgarishlar ta'lim-tarbiya jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirishni taqozo qiladi. Chunki yurtimiz kelajagi ta'lim-tarbiyaga bog'liqdir. Yangi pedagogik texnologiyaga asosan har bir fanni o'tish jarayonida ilg'or pedagogik maxorat, malaka va ko'nikmalarga tayanib ish yuritish samarali natijalarga olib keladi. Chunki kam vaqt sarflab, yuqori natijalarga erishish ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadidir. Ana shu nuqtai-nazardan talabalar adabiy til va badiiy stilning bir-biridan farqini ijodiy o'rganishlari kerak. Bu haqdagi tushunchalar, til va badiiy stilning bir-biridan farqini bilishlari lozim. Ana shu nuqtai-nazardan mavzu ayni vaqtda yechilishi lozim bo'lganligi uchun ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

**Ishning maqsadi va vazifalari.** Ushbu bitiruv malakaviy ishning maqsadi va vazifalari.

Ushbu ishning maqsadi hozirgi o'zbek adabiy tili stilistik, semantik xususiyatlarini ko'rsatib berish. Adabiy til va badiiy stilning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini ko'rsatib berish.

Adabiy til nima? Uning xalq tilidan farqi, badiiy stil, xalq shevalari, unga adabiy tilning munosabati masalasi hal qilinadi.

**Mavzuning o'rganilish darajasi.** Ushbu ishda qiyosiy, tarixiy suhbat, tayyor bilim berish usullaridan foydalaniladi. Bundan tashqari professor

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov "Madaniy istiqloq mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir". "Fidokor" gazetasi muxbiri savollariga javoblar. Toshkent. "O'zbekiston" 2000 yil, 23-bet.

X.Doniyorov, B.O‘rinboyev, B.Yuldoshev, A.Po‘latov, Z.Muxtorov, I.Rasulov, M.Asqarova, U.Tursunov, Sh.Shoabduraxmonov, A.Xojiyev, A.G‘ulomov tadqiqotlariga tayandik va shu asosda ish olib bordik.

Biz bu o‘rinda milliy til, adabiy til, umumxalq tili va mahalliy dialekt tushunchalarining qo‘llanilishi darajasi, bir-biriga munosabati va o‘zaro farqlari haqida, ularning o‘zaro aloqasi va bir-biriga ta’siri haqida qisqacha fikr yuritmoqchimiz.

**Ishning nazariy asosi va usullari.** Milliy til tushunchasi umumxalq tili tushunchasiga barobardir. U hozirgi davrning umumxalq tilidir. Ularning farqi shundaki, umumxalq tili tushunchasi til taraqqiyotining hamma davrlarigi xos tushuncha bo‘lsa, milliy til ma’lum davrga xosdir, ya’ni milliy til kapitalistik munosabatlarning paydo bo‘lishi va millatlarning tashkil topishi davrida millatning asosiy birligini tashkil qiluvchi tushuncha sifatida yuzaga kelgan va hozirgi davrda ham o‘z qimmatini va aktualligini to‘liq saqlab kelmoqda.

Demak, milliy til tushunchasi yuzaga kelishining asosiy sharti kapitalistik munosabatlarning yuzaga kelishi va millat tushunchasining paydo bo‘lishidir. Boshqacha qilib aytganda, millat tili, ya’ni milliy til tushunchasi kapitalizm davrida yuzaga keldi.

Umumxalq tili tushunchasi esa, qadimdan mavjud bo‘lib, u hozirgi vaqtda hech o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. U hozirgi vaqtda milliy til tushunchasi bilan barobar qo‘llaniladi.

«O‘zbek tili» tushunchasi umumxalq o‘zbek tili yoki milliy tili tushunchasi bilan teng turadi.

Ijtimoiy, siyosiy va milliy hayotda yuz beradigan muhim o‘zgarishlar adabiy til taraqqiyotiga ham ta’sir etadi. Buning sababi shundaki, “Til ma’lum ma’noda ijtimoiy taraqqiyotning barometri bo‘lib xizmat qiladi, chunki unda jamiyat hayoti asosiy to‘lqinlar, o‘zgarishlar aks etib turadi”<sup>1</sup>. Lekin shuni unutmaslik kerakki, jamiyat hayotida yuz bergan u yoki bu o‘zgarish tilning

<sup>1</sup> Doniyorov X. va boshqalar. “Adabiy til va badiiy stil”. “Fan”. Toshkent 1988 yil.

barcha yaruslariga bir xilda ta'sir ko'rsatmaydi. Ayniqsa tilning grammatik qurilishini uning boshqa yaruslariga nisbatan juda sekinlik bilan o'zgartiradi. Grammatikadagi bunday o'zgarish muayyan bir xil taraqqiyotning barcha etaplarini izchil o'rganish asosida aniqlash mumkin bo'ladi.

Yuqorida qayd qilinganidek, milliy til tushunchasi hozirgi paytda umumxalq tili tushunchasiga teng keladi va ko'pincha uning sinonimi sifatida qo'llaniladi. Bu tushunchaning ma'nosi keng bo'lib, shu tilda so'zlashuvchi jamiyat a'zolari faoliyatining hamma tomonlarini o'zida aks ettiradi.

Milliy til tushunchasiga adabiy til ham kiradi, chunki adabiy til tushunchasi milliy til yoki umumxalq tili tushunchasiga nisbatan torroqdir.

Shuningdek, milliy til tushunchasi doirasiga mahalliy dialektlar, shevalar va hatto sosial jarayonlar, argolar, vulgar so'zlar ham kiradi. Faqat bu yerda shuni alohida qayd etib o'tish kerakki, adabiy til, milliy yoki umumxalq tilining qayta ishlangan, silliqlashtirilgan va muayyan normaga solingan qismidir.

Shunga ko'ra u milliy til yoki umumxalq tilining yuqori formasi bo'lsa, mahalliy dialekt va shevalar shu umumxalq tili va milliy tilning quyi formalari bo'lib xisoblanadi.

Milliy til bilan adabiy til tushunchalari orasidagi uchinchi farq shundan iboratki, milliy tilning yuzaga kelishi kapitalistik munosabatlar yoki kapitalistik formatsiya bilan bog'liq bo'lsa, adabiy til tushunchasining yuzaga kelishi yoki uni shakllanishi odatda ko'pincha rivojlangan yozuv va yozma adabiyotning mavjudligi bilan, umuman olganda rivojlangan yozma adabiyot, madaniyat va an'anaga ega bo'lgan yozuvning yuzaga kelishi, aniqrog'i uning mavjudligi bilan bog'liqdir. Shu bilan birga yuqoridagi shartlar ilgari mavjud bo'lgan taqdirda kapitalistik formatsiyadan kiyingi davrda, ya'ni hamma millat va elatlarning rivojlanishi uchun chinakam sharoit yaratuvchi mustaqillik davrida milliy til tushunchasining mazmuni shakllanib yuzaga keldi.

## **I Bob. Adabiy tilning og‘zaki formasi va badiiy stil**

### **1.1. Adabiy tilning og‘zaki formasi.**

Adabiy tilning yozma formasi mavjud bo‘lgan joyda ham ayni bir vaqtda uning og‘zaki formasi yoki shu og‘zaki formasining turli ko‘rinishlari uning yozma formasi bilan paralel ravishda mavjud bo‘lishi va parallel ishlashi mumkin.

Har bir adabiy tilning taraqqiy etishida tashqi faktlar ham muhim rol o‘ynaydi. Masalan: O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng, milliy tilimiz taraqqiy qildi. Unga davlat tili degan maqom berildi. Bu qonun tilimizni yanada rivojlantirishga sababchi bo‘ldi.

Milliy til tushunchasi bilan adabiy til tushunchasining yana bir farqi shundaki, milliy tilning ayrim asoschilari bo‘lmaydi. Milliy tilning asoschisi shu tilning egasi bo‘lgan xalqdir.

Shunday qilib, adabiy til umumxalq tilining yoki milliy tilning shoirlar, adiblar va o‘z ustalari tomonidan qayta ishlangan, ma‘lum normaga solingan va standartlashtirilgan qismidir. Boshqacha qilib aytganda, adabiy til bu umumxalq tilining silliqlashtirilgan, sayqal bergan va amalda xususan yozuvda ko‘proq qo‘llaniladigan qismi yoki formasidir. Shu jihatdan qaraganda, adabiy til tushunchasiga boshqa funksional stillar va ularning turli xil ko‘rinishlari ham kiradi.

Badiiy til ham adabiy tilning bir ko‘rinishidan iborat va u adabiy til tushunchasi doirasiga kiradi. Aslini olganda badiiy til degan kategoriya yo‘q. Badiiy til deyishimiz adabiy tilning badiiy stildagi ko‘rinishi yoki badiiy stilga to‘g‘ri keladi. Shunga ko‘ra badiiy til iborasi, shu jumladan Navoiy tili, Bobur tili, A.Qodiriy tili, M.T.Oybek tili degan iboralar aslida Navoiy stili, Bobur stili kabi tushunchalarga tengdir. Lekin yuqoridagi iboralar aslida uzoq vaqtdan buyon an’anaga aylanib, odat tusiga kirib qolgani uchun ular hozirgi adabiy tilimizda ham shu holda qo‘llanilaveradi.

Adabiy til bilan kishilarning nazarida go‘yo milliy til va umumxalq tiliga nisbatan yuqoriroq dabdabaliroqday va hatto kengroqday bo‘lib tuyuladi. Buning sababi adabiy tilning qayta ishlanganligida silliqlanganligi tufayli tovlanib ko‘rinishida, uning ko‘proq qo‘llanilishida va hamma funksional stillarning xususiyatini o‘zida aks ettirishidir. Lekin milliy til bilan badiiy til orasida, shuningdek, adabiy til bilan badiiy til orasida unchalik ajralish yo‘q. Aksincha, ular orasida uzviy bog‘liqlik va doimiy o‘zaro munosabat mavjud. Chunki milliy tilning bu qismida uning qandaydir xususiyatlari doimo ishlanib va qayta ishlanib, o‘z imkoniyatlaridan ba‘zan ba‘zi tomonlarini adabiy tilga o‘tkaza boradi. Shu yo‘l bilan adabiy tilning eskirgan yoki eskira boshlagan elementlari oshib, mukammalashadi. Boshqacha qilib aytganda, adabiy tilning o‘zi milliy til asosida quriladi va uning bazasida rivojlanib, takomillasha boradi. Demak milliy til adabiy tilning mustahkam poydevori, tayanchi bo‘lib hisoblanadi. Masalan: shu nuqtai-nazardan qaraganda milliy tilsiz adabiy tilning o‘zi ham bo‘lmaydi. Chunki milliy til adabiy tilda yo‘q narsani unga beradi.

Qisqasi milliy til yoki umumxalq tili bilan adabiy til o‘rtasida uzviy bog‘liqlik bo‘lishi bilan bir qatorda ularning o‘zaro aloqasi va bir-biriga munosabati, bir-biriga ta’siri doimiy to‘xtovsiz jarayon sifatida davom etadi.

Milliy tilning qo‘yi formalari bo‘lgan mahalliy dialektlar va xalq shevalarining ham adabiy til bilan bog‘liqlik jarayoni va o‘zaro aloqasi doimiy xodisa sifatida davom etib turadi. Mahalliy dialektlar va xalq shevalarining qandaydir formalari doimo asta-sekinlik bilan adabiy tilga o‘ta boradi, uni boyitadi.

O‘z navbatida har bir adabiy til ham milliy tilning boshqa tillarga, xususan, uning quyi formalari hisoblangan mahalliy dialekt va shevalarga kuchli ta’sir ko‘rsatib, ulardan bir qismini o‘ziga moslashtiradi, bo‘ysindiradi va o‘ziga singdiradi. Lekin shu bilan birga, ayni vaqtda, adabiy tildagi qandaydir so‘zlar, qandaydir ibora va formalar zamonlar o‘tishi bilan asta-sekin eskirib, iste’ moldan chiqa boshlaydi. Ularning o‘rni xalqning jonli tili hamda shu jonli tilning turli

ko‘rinishlaridan iborat bo‘lgan mahalliy dialektlar va xalq shevalari tomonidan, ularning yangi-yangi imkoniyatlaridan yoki tashqi omil tomonidan to‘ldirila boradi.

Shunday qilib, mahalliy dialekt va xalq shevalari milliy tilning quyi formalari bo‘lib hisoblanadi. Shu bilan birga ayni vaqtda ular adabiy tilning ichki rivojlanish imkoniyatlarini tashkil qiladi. Adabiy tilning yoki milliy adabiy tilning taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ichki manba tayanch hisoblanadi. Shuning uchun ham mahalliy dialektlar va xalq shevalariga milliy adabiy tilning ichki manbai ichki taraqqiyot resurslari va tayanchi sifatida avaylab munosabatda bo‘lish talab qilinadi.

Demak, dialektizmlarga qarshi kurashaman deb, dialekt va shevalarga qarshi o‘t ochmaslik kerak. Aks holda, biz milliy til va adabiy tilga zarar yetkazgan, uning rivojlanish imkoniyatini birmuncha qisqartirgan, ildiziga bolta urgan bo‘lamiz.

Til to‘g‘risidagi ta‘limotlardan ma‘lumki, mahalliy dialektlar va xalq shevalari har biri o‘ziga yarasha grammatik qurilishi, o‘ziga xos leksik tarkib va ichki imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ular ana shu imkoniyatlar asosida taraqqiy etadi va milliy adabiy tiliga baza bo‘lib xizmat qiladi. Vaqti kelganda ana shunday xususiyatlariga ko‘ra mahalliy dialekt yoki xalq shevalaridan birortasi yoki bir guruhi alohida rivojlana borib, hatto milliy adabiy tilning yuqori formasi darajasiga ko‘tarilishi, ya‘ni adabiy tilga asos bo‘lishi ham mumkin.

Lekin o‘zbek adabiy tilining tashkil topishi va shakllanishi ma‘lum bir dialekt yoki guruh shevalar asosida bo‘lgan emas, balki u, o‘zbek milliy tilining tarkibidagi uchta komponent, uchta katta laxjaning birlashuvi asosida yuzaga kelgan. Bu haqda Y.D.Palivanov birinchi bo‘lib quyidagi fikrni aytgan edi “O‘zbek tili (o‘zbek dialektlarining bir butun yig‘indisi sifatida) yagona tizimning, hech qachon amalda bo‘lmagan o‘zbek bobo tilining dialektologik parchalanishi yo‘li bilan emas, balki, til tizimlarining birlashuvi yo‘li bilan paydo

bo‘lgan”<sup>1</sup> Y.D.Palivanov tomonidan bundan yarim asrdan ko‘proq vaqt ilgari aytilgan bu fikr vaqt o‘tgan sari ko‘proq ahamiyat kasb etib bormoqda.

Shunday qilib, so‘nggi vaqtlarda o‘zbek adabiy tilining tayanch dialektlari deb Toshkent, Farg‘ona shevalari tez-tez tilga olinayotganiga qaramasdan, aslida o‘zbek adabiy tilini rivojlantirishda o‘zbek tili tizimsidagi ko‘zga ko‘ringan dialekt va shevalarning deyarli hammasi ham o‘z imkoniyatlariga qarab qatnashib kelmoqda. Boshqacha aytganda professor Y.D.Palivanov va professor Qori olim Yunusovlar tomonidan ko‘rsatilgan o‘zbek tilining uchta kata laxjaga (qorluq-chigil yoki turk-barlos, qipchoq va o‘g‘iz) asosida o‘zbek adabiy tili tez suratlar bilan rivojlanib kelmoqda, boyib bormoqda. Qipchoq shevalarining hozirgi o‘zbek adabiy tilini ham eski o‘zbek adabiy tilini ham rivojlanishida aktiv qatnashganligi va muhim rol o‘ynaganligi isbotlandi.

Shuni ham alohida qayd etish kerakki, hozirgi o‘zbek adabiy tilida yuqorida sanab o‘tilgan uchta kata lahjaning hammasini ham ma‘lum darajada asos bo‘lgan deb hisoblashimiz va xususan hozirgi o‘zbek adabiy tilini rivojlantirishda o‘zbek milliy tili tarkibidagi ko‘zga ko‘rinarli mahalliy dialekt va shevalarning o‘ziga yarasha ishtiroki borligini e‘tirof qilishimiz lozim. Toshkent-Farg‘ona-Andijon shevalarining hozirgi o‘zbek adabiy tilimizga tayanch dialekt bo‘lib xizmat qilishini inkor qilmagandek, hozirgi o‘zbek adabiy tilimizda eski o‘zbek adabiy tilining bevosita asos bo‘lib xizmat qilganligini ham inkor etmaydi.

Holbuki, keyingi vaqtlarda ba‘zi bir kishilarning tushunchalarida ana shunday hol yuz berayotganligiga o‘xshab ko‘rinadiki, bunday holda keng yo‘l qo‘yib berilsa birinchidan, u o‘zbek adabiy tilining shakllanishi va uning ichki manbalari to‘g‘risida ko‘pchilikda shubha uyg‘otsa, ikkinchidan, bunday hol o‘zbek adabiy tilining bundan keyingi davrda shevalar hisobiga rivojlanishining yo‘lini bog‘lab qo‘yishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida, adabiy tilimizning rivojlanishidagi imkoniyatlar bir qismini yo‘qqa chiqaradi. Oqibatda o‘zbek

---

<sup>1</sup> “Хозирги ўзбек адабий тили” II қисм. Т-19 йил. 19-бет.

adabiy tilining kelgusi rivojlanishida salbiy ta'sir ko'rsatadi, uni kuchsizlantiradi. Shuning uchun ham bunday tushunchalarga yo'l qo'ymaslik kerak.

Darhaqiqat zamonamizning mashhur adibi Ch. Aytmatov to'g'ri qayd qilganidek «Xalqning abadiyligi uning tilidir. Biz hech qaysi tilni, u qay xalqniki bo'lishidan qat'iy nazar, hech vaqt kamsitmasligimiz kerak, bunday qilishga haqqimiz yo'q. Har birimiz bizni dunyoga keltirgan va bizga o'zining eng muqaddas boyligi – tilini hadya qilgan xalqimizdan bir umrga qarzdor ekanligimizni hech qachon unutmasligimiz shart. Agar biz o'z ona tilimiz, uning rivoji haqida jiddiyroq o'ylamasak bora-bora uning yo'qolib ketishi hech gap emas. Tarixdan shu narsa ma'lumki, tilning yo'qolishi oson, yo'qolgan tilning esa qayta paydo bo'lishi amrimahol. Yangi tillar vujudga keladigan zamonlar allaqachon o'tib ketgan. Shuning uchun ham mavjud tilimizni asrab avaylashimiz, uni rivojlantirishimiz kerak. Til ekologiyasi xududi tabiat ekologiyasi singari mo'rt va murakkabdir»

Demak adabiy til ham parvarishga muhtoj. Yaxshi bog'bon bog'ini, yaxshi chavandoz otini va yaxshi muhandis mashinasini parvarishlab turganidek, adabiy tilni ham parvarishlab turish kerak.

O'zbek tili turkiy tillar ichidagina emas, dunyo tillari orasida ham eng ko'p dialektlilik tillardan hisoblanadi. Shunday ekan, tabiiy ravishda shu ko'p dialektlilik xususiyati o'zbek tilining musbat tomonimi yoki manfiy degan savol tug'iladi. Bizningcha bu xususiyat o'zbek tilining ijobiy tomonidir.

To'g'ri, ko'p dialektlilik ba'zan boshqalarninggina emas shu millat a'zolarining o'zaro munosabati so'zlashuvda ham ba'zi bir qiyinchiliklar bu tilning xususan lug'at tarkibini o'rganishda ko'rinadi. Ko'p dialektlilik, birinchi navbatda milliy tilning o'zi va ayniqsa uning adabiy formasining rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ko'p dialektik ba'zi hollarda shu millat a'zolariga til jihatidan qarindosh bo'lgan boshqa millat a'zolari tillarini o'rganish va o'zlashtirishga yordam beradi. Masalan: shaharlik o'zbeklarning uyg'ur tilini, qipchoq o'zbeklarining qozoq va qoraqalpoq, pug'ay, bolgar tillarini, Xorazm

o'zbeklarining turkman va ozarbayjon tillarini nisbatan tez o'zlashtirishi fikrimizning dalilidir.

Masalaga bu jihatdan qaraganda tilimizdagi ko'p dialektlilik boshqa qarindosh tillarni qiyosiy rejada o'rganish ishini ham osonlashtiradi va unga yordam beradi.

Darhaqiqat, respublikamizdagi ko'p sonli tilshunos dialektologlar uzoq yillar mobaynida olib borgan kuzatishlari va xulosalari mahalliy dialekt va xalq shevalarining adabiy til bilan aloqasi ko'pincha bevosita yuz berishidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, milliy til, adabiy til va mahalliy shevalar orasida doimiy, o'zaro munosabat va bog'liqlik bo'lishi bilan bir qatorda ular orasida ma'lum farqlar va o'ziga xos chegaralar ham mavjudki, bunday farq va chegeralar haqida har bir tilshunos aniq tasavvurga ega bo'lishi kerak.

Uchinchidan, mahalliy dialekt va xalq shevalari adabiy til bilan hozirgi vaqtda ham bevosita aloqada bo'lishi, o'zining ichki imkoniyatlari bilan adabiy tilning bazasi sifatida uning boyish, rivojlanish va mukammallashuvida muhim rol o'ynashi mumkin. Shunday jarayon hozirgi o'zbek va boshqa turkiy tillarda ko'proq uchramoqda.

Biz bunday vaziyat va jarayonning qadriga yetmog'imiz va adabiy tilimizning kelgusida o'z ichki imkoniyatlari asosida rivojlantirishda undan to'laroq foydalanmog'imiz lozim.

### **1.2. Adabiy tilimizning hayotbaxsh manbalari.**

Ma'lumki, til taraqqiyotining hozirgi bosqichida milliy adabiy tilimizning rivojlanish manbai ikki asosiy qonuniyat asosida takomillashmoqda. Shulardan biri rus tili bo'lsa, ikkinchisi ingliz tili hisoblanadi. Milliy adabiy tilni rivojlantiruvchi ichki imkoniyatlarga tayanish zarur. Bu ichki imkoniyatlar, birinchi navbatda, uning zaxiralari bo'lgan, xalq tili, xalq sheva, dialektlari kiradi. Adabiy til bilan xalq tili va shevalari o'zaro doimiy aloqada bo'lib turadi va bir-biriga ta'sir ko'rsatadi.

Xalq shevalari va mahalliy dialektlarni adabiy tilimiz bilan bogʻlab oʻrganish sohasida keyingi vaqtlarda anchagina jiddiy ishlar qilindi. Tilshunosligimiz uchun ana shunday ishlar benihoya zarur. Chunki u yoki bu dialektning, u yoki bu guruh shevalarining adabiy tilimizga qoʻshgan hissasi va inga beradigan imkoniyatlarini oʻrganmasdan turib, shu shevalarning yoki adabiy tilimizning istiqbolini belgilash, uning kelajagini taʼminlash sohasida biror jiddiy ish qilish lozim. Masalaga shu nuqtai-nazardan qaraganda bir qator tilshunos olimlarimizning xalq shevalarini tasniflash va ularni adabiy tilimiz bilan bogʻlab oʻrganish sohasida qilgan izlanishlarining ahamiyati tilshunosligimiz uchun beqiyos darajada kattadir. Biroq bu ishlarni hali amaliy stilistik stil va boshqa funksional stillar hamda nutq madaniyatini boyitish aspektida va yangi-yangi shevalar, dialektlar va xalq ogʻzaki ijodining til xususiyatlari bilan bogʻlab oʻrganishni davom ettirmoq lozim. Masalaga shu nuqtai-nazardan qaraganda, bajarilgan ishlar hali juda oz, lekin oʻrganilishi lozim boʻlgan materiallar va adabiy tilimizni boyitishga xizmat qiluvchi hayotbaxsh manbalar juda koʻp. Ana shunday manbalardan bir qismi oʻzbek tilining kam oʻrganilgan qipchoq dialektlari bilan bogʻliq boʻlib, bu sohadagi materiallar faqat adabiy tilimiz uchungina emas, badiiy nutq stili uchun ham qimmatli manba boʻlib xizmat qiladi.

Oʻzbek tilining qipchoq dialektlari deganda biz oʻzlarini yuzlab yillar oldin ham oʻzbek nomi bilan yashab kelgan oʻrta osiyo xalqlarining turkiy urugʻlariga mansub mavjud aholini tushunamiz. Ular bir necha urugʻlarga boʻlinib yashaganlar.

Bularga: ming, yuz, qirq, qiyot, qoʻngʻirot, marqa, nayman, mangʻit, qangli, saroy, jaloyir, tuyoqli, oʻroqli, uyas, olamon uyas, suloqli, baxrin, loqay singari urugʻlar birlashmalari kiradi.

Bu shevaning vakillari hozirgi vaqtda Samarqand, Jizzax, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarining asosiy qismida, Toshkent, Sirdaryo viloyatlarining togʻli qismida yashaydilar.

Tilshunos olimlardan M.Sh.Sheraliyev, Sh.Shoabdurahmonov, professor N.A. Bekakov, G'.Abdullayev, U.T.Tursunov, S.Ibragimov va boshqalar ilgari "o'zbek" nomi bilan atalib kelgan bu aholining shevalarini qipchoq shevalari deb atay boshlaganlar va bu nomni muomalaga kiritdilar. Biz ham shularga qo'shilib bu shevalar guruhini qipchoq dialekti shevasi deb atadik. Ayniqsa, bu atama mustaqil bo'lganligimizdan keyin avj olmoqda. Bu ayni zamonda juda ham to'g'ri.

Sarasini aytganda, qipchoq dialektlarining xususan sharqiy guruh shevalarining leksikasi o'zining rangba-rangligi bilan ohori to'kilmagan keng stilistik imkoniyatlarga egaligi, turli-tuman o'ziga xos tomonlari bilan kishini e'tiborini o'ziga beixtiyor tortadi. Kuzatuvchini o'ziga moyil qiladi, rom etadi. Lekin ana shu boyliklarning bir qismi ma'lum darajada adabiy tilimizning va badiiy stilimizning mulkiga aylanib borayotgan bo'lsada, uning kata bir qismi ham o'zlashtirilmagan.

Bu shevalarni hozirgi vaqtda adabiy tilimizga ko'proq hamda qisman shahar shevalari ta'sirida intensiv ravishda nivilirovka (silliqlashi) umuman olganda silliqlanib shahar shevalariga yaqinlashib bormoqda. Qipchoq shevalaridagi rang-ba-ranglik va umuman o'zbek tilining ko'p dialektliligi va murakkabligi adabiy tilning o'sishi va rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmagan, aksincha, unga turli xil imkoniyatlar va turli vositalari uchun baza bo'lib xizmat qilgan. Masalan: O'zbek tilining qipchoq dialektlari o'zbek adabiy tilining va uning stilistikasining rivojlanishi, takomillashuvi va boyishida kata rol o'ynaydi.

Qipchoq dialektlarining bu roli ayniqsa mustaqillikka erishganimizdan so'ng shakllana bordi. Bu borada adabiy tilga bo'lgan munosabat uning grammatikasiga ko'pgina o'zgarishlarga olib keldi. Bu ayniqsa fe'lning funksional formulasini tahlil qilishda yaxshi natijalarga olib keldi. Professor Xudoyberdi Doniyorovning ilmiy izlanishlariga ko'ra hozirgi o'zbek adabiy tilida ravishlar qiyosiy darajasining -boy va -dek qo'shimchali ikki parallel shakli mavjud. Bulardan -dek adabiy tilimizga shahar shevalaridan olingan. Shahar

shevalarida buning –daq, -doq, -dig‘, -dog‘ kabi variantlari ham bor. Shunisi –dek qo‘shimchaga nisbatan ko‘proq qo‘llaniladi. Shuning uchun ham bu o‘zaro sinonimik munosabatga ega bo‘lgan qo‘shimchalar ma‘lum qo‘llanish chegarasi bilan xarakterlanadi. Masalan: shunday va shunday qilib so‘zlarida ham doimo –day qo‘shimchai ishlatiladi. Shu olmoshi qaratqich kelishigida kelganda esa, faqat –dek qo‘shimchai bilan birlashadi.

2. Harakat nomlarining uch formasi (-moq, -ov), (-uv), i (-ish) dan faqat –moq shahar shevalaridan o‘zbek adabiy tiliga kirgan. Qolgan ikkitasi qipchoq lahjasidan olingan. Bu uch forma adabiy tilda birday qo‘llaniladi. Ammo bular uchovi ham dastlab turli dialekt va shevalarda bir vazifani bajarganligi deyarli bir ma‘noda bo‘lganligi tufayli bu shakllardan yo biri qo‘llanilishi yoki ularning semantik-stilistik tabaqalanishi zarur edi. Masalan, -moq qo‘shimchai fe‘l shakli ko‘proq infonitiv ma‘nosida bo‘ladi. –(u) uv (-ish) qo‘shimchai harakat nomlari va otlashgan so‘zlarni bildiradi. Lekin bu yerda masalaning asosiy tomoni shundaki, ular tilda parallel mavjud bo‘lib, o‘zbek adabiy tilining grammatik, stilistik tizimini boyitadi. Ana shunday stilistik tabaqalanishi rivojlana borib, ba‘zi hollarda bu formalarni bir-biriga nisbatan inkor qilish darajasiga olib keladi. Masalan: borish, kelish qilmoq fraziologizmidagi juft harakat nomi borish-kelish faqat –sh (-ish) shaklida ishlatiladi. Bunda borish-kelishni, bormoq-kelmoq, boruv-keluv kabi formalar bilan almashtirib bo‘lmaydi. Aks holda, hozirgi o‘zbek adabiy tilining grammatik, stilistik tizimiga fraziologizmlarning qo‘llanish normativligiga putur yetadi. Lekin bu hammasi tildagi salbiy hodisalar emas, balki ijobiy tomonlardir. Tilimizning uslubiy rang-barangligini ko‘rsatiuvchi tomonlardir. Shuning uchun ham bunday hodisalardan badiiy nutq jarayonida kengroq foydalanish lozim bo‘ladi.

Haydamoq, haydash kerak, haydov bermoq kerak kabi grammatik-stilistik formalarni ham o‘zaro almashtirib bo‘lmaydi. Ta‘kidlash kerakki, -v, (-uv) qo‘shimchai fe‘l shakllari boshqalardan farq qilib, semantik siljish bilan asta-sekin otga o‘tishga moyildir. Bu o‘rinda haydov, kechuv (sinonimii kechik),

oqlov, qishlov, sudlov kabi ko‘plab otlar paydo bo‘ladi va ular hozirgi adabiy tilimizda keng xizmat doirasini o‘tamoqda.<sup>1</sup>

Qizig‘i shundaki, shahar shevalaridagi qishloq so‘zi va qipchoq dialektikalarida xuddi shu ma‘nodagi qishlov so‘zi adabiy tilga parallel kirgan. Lekin ular hozirgi vaqtda adabiy tilda farqli ma‘noda qo‘llaniladi: qishloq-aholi punkti, qishlov-chorva qishlovi. Xuddi shuningdek, so‘roq so‘zi hozirgi adabiy tilimizda savol ma‘nosida qo‘llansa, so‘rov talabnoma (opros) ma‘nosida qo‘llanmoqda.

O‘zbek adabiy tilida –v (-uv) ning qo‘llanishi bilan bog‘liq bo‘lgan yuqorida keltirilgan bir necha dalilning o‘ziyiq shuni ko‘rsatib turibdiki, qipchoq dialektlari o‘zbek adabiy tili stilistik tizimining taraqqiyoti va yuksalishi uchun juda ko‘p mahsul beradi va bermoqda.

### 3. Qipchoq dialektlarida sifatdosh formalarining adabiy tildagi

–maslik va –masdan shakllari o‘rnida –mav\ –mov inkor shakli tez-tez uchrab turadi. Bir qaraganda qipchoq dialektlariga xos bo‘lgan bu shakl adabiy til shaklidan juda uzoq turganday va adabiy til grammatikasi yoki stilistikasi uchun deyarli hech narsa bermaydiganday tuyaladi. Haqiqatda esa bunday emas. Garchi qipchoq lahjalariga xos bo‘lgan bu forma adabiy tilda turg‘un holatda va kam uchrasa ham, adabiy til stilistik tizimini boyitadi. Masalan, bo‘ysunmovchilar, yetishmovchilik mavjud, anglashmovchilik yuz berdimi yoki xoxlamovchilar ketishi mumkin kabi.

Shunday qilib, -v/ -uv qo‘shimchasi qipchoq dialektlaridan o‘zbek adabiy tiliga yaqinda (asosan sovet davrida) o‘tgan bo‘lishiga qaramasdan hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi eng mahsuldor so‘z yasovchi (forma yasovchi) qo‘shimchalardan biri bo‘lib qoldi.

4. –yapti, –yotir, –moqda shaklidagi hozirgi zamon fe‘l formalarining qo‘llanilishida ham qiziq jarayon yuz bermoqda. Bu formalarning birinchisi Andijon, Farg‘ona shevalariga, keyingi ikkitasi esa qipchoq dialektikalariga

<sup>1</sup> Ўзбек тили грамматикаси I том, 1975 йил, 258 бет.

mansubdir (uchinchisini umumiy deb atash ham mumkin). Dastlab bular ham adabiy tilda teng qo‘llanilar edi<sup>1</sup>, lekin keyinchalik ularning ma‘no va qo‘llanilishida ayrim o‘zgarishlar yuz berdi – yapti qo‘shimchasi hozirgi zamonning umumiy ma‘nosi bilan birga, xuddi shu nutq so‘zlanayotgan payt ma‘nosiga ham egadir. Kelayapti, senga gapiryapman, ya‘ni harakat nutq vaqtida yuz berayotir – yotir qo‘shimchasi esa – yaptiga nisbatan birmuncha uzoqroq vaqtni anglatadi: uzoqdan kelayotir, bu hodisa ko‘p vaqtdan beri davom etib kelayotir, – moqda shakli esa harakat yoki vaqt mavzusining yana uzoqroq muddatining yoki davomiylikni ko‘rsatish uchun qo‘llaniladi. Paxta topshirish davom etadi – sur‘at kundan-kunga oshib bormoqda. Bu hodisa necha vaqtlardan beri davom etib kelmoqda kabilar.

Demak, – yapti formasi asosan hozirgi bo‘layotgan hodisani bildirsa, moqda asosan davomli va surunkali ish harakatini ifodalaydi.

Shuni alohida ta‘kilash kerakki, hozirgi zamon davom fe‘l ining ko‘rsatilgan uch shakli adabiy tilimizda hali tamoman farqlanib, rasmiy tus olgan emas. Lekin bu zamon formalaridan biri hozirgi o‘zbek adabiy tili stilistik tizimsida o‘ziga xos ma‘no bo‘yog‘i va o‘rni bor. Shuning uchun ularni o‘z o‘rnida qo‘llash va ularning stilistik imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanish lozim.

Darhaqiqat, adabiy tilimizning hayotbaxsh ichki manba‘lari ko‘p. Lekin ulardan to‘g‘ri va to‘la foydalanish natijasida yuzaga kelgan muammolari ham ko‘p. Masalan, alfavit va yozuvimizda juftliklar bor. Bu kamchilik og‘zaki adabiy tilimizga ham o‘tib borayotganligini anglamay qolamiz. Natijada so‘nggi vaqtlarda adabiy tilimizda ayrim unli harflar umuman noto‘g‘ri talaffuz qilinmoqda. Masalan, hozirgi imlomizda – g‘on qo‘shimchasi yo‘q. Demak, singarmanizm qonunini adabiy tilimizda to‘liq qayta tiklanmagan taqdirda ham juft unlilarning ma‘no buzilishidan saqlab qoluvchi xususiyatlarini va qo‘shimchalarning eng zarur turlarini to‘la o‘rganib chiqish va yozma adabiy til normasiga kiritish lozim. Shunga ko‘ra, tilimizning bunday xususiyatini o‘rta

---

<sup>1</sup> А.Хожиев “Феъл” Тошкент, 1973 йил.

maktablarda o'rgata borish, oliy o'quv yurtlarida esa, talabalarga to'la tahlil qilish va farqlash malakasini orttirib borish lozim.

Xulosa qilib aytganda, doimo shuni yodda tutishimiz lozimki, xalq tili – umumxalq mulki, xalq boyligidir. U adabiy tilimizning ichki oziqlantiruvchi, hayotbaxsh manbaidir.

Yuqoridagi singari muammolarni ham xalq tilining materiallariga va qonuniyatlariga tayangan holda, ular bilan bog'liq holda ochish kerak bo'ladi. Adabiy tilimizning asosiga xalq tili elementlarini tobora ko'proq kiritmog'imiz lozim.

5. Adabiy tilning leksik-stilistik vositalari orasida qipchoq dialektlarining leksik frazeologik birliklari ko'p uchraydi. Masalan, hozirgi o'zbek adabiy tilida parallel ravishda keng qo'llanilayotgan quyidagi frazeologiyalarning ikkinchi komponenti ochiq so'zi bilan birinchisi esa, yuz so'zining sinonimlari bilan ifodalangan. 1) yuzi ochiq, 2) beti ochiq, 3) chehrasi ochiq. Umumiy ma'noga ega bo'lgan bu iboralar bir-biridan stilistik jihatdan farq qiladi. Masalan, yuzi ochiq iborasi ko'pincha stilistik betaraflik, beti ochiq iborasi esa, so'zlashuvchining boshqa shaxsga nisbatan salbiy munosabatda ifodalangan, chehrasi ochiq frazeologizm esa, so'zlashuvchining o'sha kishiga nisbatan xayrihohlik munosabatini yoki o'sha ob'yektnig yaxshi kayfiyatda ifodalanishini anglatadi.

6. Hozirgi adabiy tilimizda ota ma'nosini anglatish uchun uchta sinonim so'z ishlatiladi. Bular: a) ota, b) dada, v) ada. Bulardan ota so'zi ilgari ko'pchilik dialekt, shevalarda, jumladan qipchoq lahjasida ham ishlatilar edi. Shuning uchun hozir adabiy tilda, shahar yoki shahar tip shevalardan kirgan. Hozirgi adabiy tilda ada so'zi ham mavjud bo'lib, Toshkent shahar shevasidan kirgan. Bu so'z stilistik jihatdan otani erkab atash yoki bolalarning otaga murojaat qilish ma'nosini ifodalab kelmoqda.

7. Hozirgi o'zbek adabiy tilida salomlashuvning-assalomualaykum, salom alaykum, salom, keling, hormang kabi shakllari mavjud.

Dastlabki to‘rt so‘z kelib chiqishi tomonidan arabcha bir so‘zning turli variantlaridir. Lekin ularning har biri o‘z stilistik xususiyatiga ega. Ko‘proq keksalar va hurmatli kishilarga salom berishda ana shu birinchi ibora ishlatiladi. Chunki bunda ko‘proq hurmat va ehtirom bo‘yog‘i mavjud. Salom alaykum – oddiy, odatdagi salomlashish, shu bilan birga hurmat ma’no bo‘yog‘iga ega bo‘lgan betaraf stilistik yo‘nalishini ifodalaydi. Assalom – umumiy salomlashishning qisqargan shakli. Ilgari bu so‘z bilan asosan Samarqand shahri atrofidagi ayollar erkaklarga salom bergan.

Hozirgi vaqtda badiiy adabiyotda va xususan poeziyada assalom formasi qisqa salomlashishning yangi usuli. Masalan, assalom rus xalqi buyuk og‘amiz yoki hurmatli paxtakorlar so‘zi, salom-assalom, assalom Navruz, assalom navqiron yangi avlod!

Salomlashishning keling shakli qiziq semantik-stilistik o‘zgarishga uchragan va bizning kunlarimizda ham ayrim hududlarda qo‘llaniladi. Bu so‘z adabiy tilda asosan, qipchoq dialektlarining vakillari bo‘lmish ayollar nutqidan va Andijon shahar shevasi vakillari nutqidan kirgan. Ko‘proq ayollar tomonidan erkaklarga salom berish uchun qo‘llanilgan.

Keling so‘zi ayollar tomonidan ko‘proq salomlashish vositasi sifatida qo‘llanilishi bilan birga, erkaklar tomonidan ham taklif, tavoze ma’nosida tez-tez ishlatiladi.

8. Qipchoq dialektlarida adabiy tilda chorvachilik, paxtachilik va g‘allachilik sohalarida paydo bo‘lgan juda ko‘plab leksik-frazeologik birikmalar kirib kelgan. Shulardan chorvachilikka oidlari, ayniqsa xarakterlidir. Masalan, hozir adabiy tilimizda va ayniqsa vaqtli matbuot sahifalarida dastlab faqat chorvachilik yoki ot chopish holati bilan bog‘liq bo‘lgan shunday barqaror bo‘lgan birikmalar uchraydi. Otni qamchilamoq, otga qamchi bosmoq, uloqni olib qochmoq, sovrinni egallamoq, jilovni bo‘sh qo‘ymoq, ot izini toy bosadi, ot yigitning qanoti, qo‘y keladi qo‘zi bilan va boshqalar.

9. Ma'lumki, o'zbek tilining qipchoq dialektlari olti kelishikni ko'rsatkichlari bilan saqlab qolgan. Shahar shevalarida esa qaratqich va tushum kelishiklari qorishtirilgan holda ishlatiladi. Keyingilarida bu ikki kelishik bir qo'shimcha tushum kelishik ko'rsatkichi (-ni) bilan ifodalanadi. Demak kelishiklarning olti ko'rsatkichi formasi hozirgi adabiy tilimizga bevosita qipchoq dialektlaridan kirgan. Shu bilan adabiy tilda kelishiklarning ma'no va mohiyatini butun nozikliklari bilan aniq farqlash ta'min etilgan.

O'zbek adabiy tilini yanada boyitish va rivojlantirish sohasida milliy tilning quyi formasi bo'lgan, ba'zan esa tadqiqotchilarning nazaridan birmuncha chetda turgan mahalliy dialektlarning ichki imkoniyatlari qanchalik keng darajada ekanligini biz yuqorida birgina qipchoq dialektlari misolida ko'rib chiqdik. Bunday imkoniyatlar o'zbek tilining boshqa lahja dialekt va shevalarida ham yetarli miqdorda topiladi. Ularni avaylab to'blash, ilmiy va ijodiy masalalarga qaratish va ularni hammasini adabiy tilimizning huquqiy mulkiga aylantirish, bizga o'xshagan yoshlarning muqaddas burchidir.

Darhaqiqat, biz tilchilar xalq tilining qonuniyatlarini chuqur o'rganishimiz, ardoqlashimiz va uning imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanishimiz, unga doimo amal va rioya qilishimiz zarur.

Masalaga shu nuqtai-nazardan qaraganda, ba'zan xalq shevalariga, ayniqsa, qipchoq shevasidan adabiy tilimizga kirib kelgan so'zlarga befarq bo'lganday bo'lamiz. Hozirgi adabiy tilimizda xalq dostonlarining kuylanishi Fozil shoir, Ergash Jumanbulbul, Pulkan va o'nlab boshqa xalq baxshilari tomonidan kuylanib kelayotgan "Alpomish", "Rustamjon", "Farxod va Shirin", "Shirin bilan Shakar", "Balogardon" dostonlarining tili o'zbek adabiy tilining taraqqiyotiga muhim hissa qo'shgan. Bu dostonlarning tili xalq, umumxalq tiliga juda ham yaqin. Buni kuylovchilar asosan qipchoq dialektiga mansub desak adashmaymiz. Bu manbalar o'zbek adabiy tilining boyishiga uni rivojlanishiga asosiy manba bo'lib xizmat qilmoqda. Aslini olganda badiiy asar tiliga e'tibor

berganimizda “Til-adabiyotning birinchi elementidir” deb berilgan klassik ta’rif hamma davr uchun birday bebaho va hal qiluvchi ta’rifdir.

Ana shuning uchun ham adabiy til haqida qayg‘urish, uning qonun-qoidalarini to‘la ro‘yobga chiqarish, uni jonli xalq tilining manbai va imkoniyatlari hisobiga boyitish adabiy til tilshunoslari burchidir.

## **II bob. Adabiy til va badiiy stilning shu kungi muammolari**

### **2.1. Adabiy tilimizning ba'zi muammolari**

O'zbek adabiy tili va uning funksional stillari mustaqilligimizdan keyin qisqa vaqt ichida beqiyos darajada rivojlandi va o'z taraqqiyot bosqichining yangi, yuqori pog'onasiga ko'tarildi. Qisqa vaqt ichida tom ma'nodagi yangi, xalqchil o'zbek adabiy tili yuzaga keldi va kelmoqda. Uning lug'at tarkibi boyib, grammatik qurilishi yanada silliqlashmoqda, funksional doirasi va stilistik imkoniyatlari yanada kengayib bormoqda. Shu bilan eski adabiy tilimizda asosan badiiy adabiyotda tilning xalq tili bidan aloqasi kuchayib bomoqda. Natijada mustaqillikda buyuk qardoshlik oilasida rivojlanayotgan o'zbek millati zamonaviy barkamol adabiy tili ravnaq topdi. Ayniqsa unga davlat tili maqomining berilishi uni ulg'aytirdi va taraqqiy etishiga imkoniyat tug'dirdi. Lekin shu bilan birga adabiy tilimizda va badiiy stil sohasida yangi-yangi muammolar ham paydo bo'ldi. Ana shunday muammolardan bir qismi "Sharq yulduzi" jurnalining 1985 yil 1-sonida e'lon qilingan "Badiiy til muammolari" nomli davra suhbatida qisman aks etgan edi. Bu suhbat adabiy tilga doir kelgusi bahs munozaralarni kuchaytirib, yangi-yangi nazariyalarni amalga oshirishni, adabiy tildagi ayrim kamchiliklarni tugatish zarur edi, ammo bu amalga oshmadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, davra suhbatlarida adabiy tilimizdagi, ayniqsa badiiy asar tilidagi kamchiliklar dialektimizda bo'lar-bo'lmas berilishi qahramonlarning obro'siga zarar yetkazadi.

Darhaqiqat, Said Ahmad adabiy tilimiz jumladan badiiy asar tilining so'nggi yillarda yuz bergan, berayotgan ko'pgina kamchilik va muammolarni oshkora aytgan va ulardan ko'pchiligini oshkora aytib, tanqid qilgan edi.

Chunki Said Ahmad respublikamizda va undan tashqarida ham keng tanilgan adiblardan, ajoyib so'z ustalaridan biridir. Bas shunday ekan, Said Ahmadning har bir fikrini o'quvchilar ommasiga tugal fikr sifatida, qoida sifatida qabul qiladi. Shu boisdan biz adibning ba'zi bir e'tirozlari yoki izohtalab

fikrlarining keng tarqalib ketishini va usiz ham muammosi ko‘p bo‘lgan adabiy tilimizning muammolari yoniga yana bir qancha jumboq bo‘lib qo‘shilishini istamaymiz.

Darhaqiqat, hech bo‘lmaganda Alisher Navoining “Muhokamatul lug‘atayn” asarida adabiy til sinonimlarining roli haqidagi fikrlarini esga olish o‘rinlidir. Shuningdek, Abdulla Qodiriy, Oybek, Abdulla Qahhor kabi buyuk so‘z ustalari ham badiiy til masalasi bilan maxsus shug‘ullanganlar. Masalan, Abdulla Qahhor kabi buyuk so‘z ustalari ham badiiy til masalasi bilan maxsus shug‘ullanganlar. Masalan, Abdulla Qahhor, Abdulla Qodiriy badiiy asar tiliga oid “Mayda hikoyalar yozganda so‘zni qanday tejash kerak”, “Yozishg‘uvchilarimizda” kabi maqolalar yozgan. Atoqli adibimiz Oybek esa 1934 yildayoq “O‘zbek poeziyasida til” nomli maxsus maqola bilan chiqqan. Abdulla Qahhor “Yoshlar bilan suhbat” asarida yoki boshqa chiqishlarida badiiy til va adabiy uslub masalalariga alohida urg‘u berib gapirgan. Tilning badiiy asardagi ahamiyatini qayta-qayta o‘qtirib, shu sohada e‘tiborga arzirli fikrlar aytgan. G‘ofur G‘ulom va Hamid Olimjonlar “Alpomish” dostonining tili haqida, Mashrab va Muqumiylarning uslubi, tili haqida faxrlanib yozganlar, qimmatli fikrlar aytib chiqqanlar.

Taniqli olim va adib Primqul Qodirov badiiy til masalalariga bag‘ishlab “Til va dil” (1972), “Xalq tili realistik proza” (1973) degan asarlar yozdi. Asqar Muxtor “Yosh do‘stimizga” (1980) kitobining kata bir qismini badiiy til masalasiga bag‘ishlab, badiiy tilni ajoyib “sirli garmoniya”- deydi.

Darhaqiqat, tilshunoslikning badiiy til muammosi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan sohalari ham anchagina bor. Ana shular jumlasiga morfologiya va sintaksis masalalarini til va tilshunoslik tarixini fonetika, orfografiya, orfoepiya, leksikologiya, grammatika yoki normativ stilistika masalalarini ishlash xalq shevalarining milliy adabiy tilga qo‘shgan hissasini o‘rganish, folklor asarlari tilini o‘rganish, o‘zbek tilining rus tili va boshqa tillar bilan munosabatini o‘rganib, til materiallarini, jumladan, badiiy asar tilini stilistik mezon asosida

ishlab chiqish, milliy adabiy tillarning shakllanish jarayoni va taraqqiyot etaplarini o'rganish, bir tilli va ko'p tilli lug'atlar tuzish umumiy tilshunoslik yoki tilshunoslikning umumnazariy muammolarini ishlab chiqish va shunga o'xshash ko'pgina masalalar kiradi. Demak, tilshunoslikning ishi unchalik ko'zga ko'rinarli bo'lmasada, lekin anchagina zahmatli va murakkab tomonlari bor. Umuman olganda bu masalalarning ochilishi va shunday masalalar bilan shug'ullangan har bir tilshunos olimning ishi u yoki bu tarzda adabiy tilga yoki filologiya fanini rivojlantirishga ma'lum darajada hissa bo'lib qo'shiladi.

Adabiy tilning yoki uning bir qismi bo'lgan badiiy tilning muammosi shunchalik ko'pki, bu masalalarning hammasini bir ikki ish bilan hal qilib bo'lmaydi.

Masalaga shu nuqtai-nazardan qaraganda yuqorida tilga olingan "Davra suhbat" da Said Ahmadning "Talantli yozuvchi ko'rgan voqealarini, holatlarini daftarga yozib yurmaydi", degan fikri ham munozaralidir. Chunki birinchidan yosh boshlovchi yozuvchilar uchun yon daftar tutish, lug'at va boshqa xil manbalarni ko'rishning, xususan til manbalarini o'rganishning ahamiyati katta. Ikkinchidan, talantli yozuvchilardan L.Tolstoy, M.Sholoxovlar ham doim lug'atdan yoki yon daftaridan foydalangan va xalq orasida yurib, xalq tilini sinchiklab o'rgangan. Uchinchidan Said Ahmad bir o'rinda badiiy ijod va unda tildan foydalanishning naqadar murakkabligi haqida "Tilni bilish faqat qaysi so'zni necha xil ma'nosi borligini bilish bilangina o'rganmaydi. Shu so'zlardan qaxramon kayfiyatiga mos jumla tuzish, avvalgi jumladagi qahramon sur'atini o'quvchi ko'z oldiga keltira olish, uning qaysi kasb egasi ekanligini anglatish, atrofida qanday manzara borligini va boshqa juda ko'p shartlarni bajarish kerak. Shularning hammasini bittagina jumla ustiga yuklay olish kerak", deb to'g'ri gapirgani holda ikkinchi bir o'rinda ijod jarayonini hodisa tarzida tushuntirishga harakat qilgandek tuyuladi.

Ayniqsa, Said Ahmadning "Axir odam bolasi ma'lum qonun-qoidalariga qarab yig'lashi, kulishi mumkin emas. Kulgu ham, yig'i ham uning ichidan

vulqondek otilib chiqadi. Adabiy asar tili ham yozuvchi qalbidan goh quyilib, goh portlab chiqishi kerak. Buning uchun yozuvchi o‘z ona tilini butun ranglari bilan, ohanglari bilan, nozu karashmalari bilan bilishi kerak” degan fikri o‘rinlidir.

To‘g‘ri, yozuvchining bu so‘zlariga jo‘shqin nutq jarayonida obrazli qilib aytilgan fikrlar sifatida shartli ravishda qo‘shilsa bo‘ladi, lekin uni yoshlarga ta’lim sifatida qabul qilib bo‘lmaydi. Zotan hech bir tanqidchi olim, hatto yozuvchi o‘z ona tilini Said Ahmad aytganidek darajada birdaniga va bir taraflama mukammal bilolmaydi. Chunki tilni mukammal bilish uchun ham ma’lum darajada mashq, o‘rganish, mahorat kerak.

Xususan, uzoq o‘tmish haqida badiiy asar yozishga kirishmoqchi bo‘lgan yozuvchi albatta o‘sha davrning tilini birdaniga mukammal bilolmaydi. Ana shuning uchun ham o‘sha davrga xos bo‘lgan lug‘atlardan va boshqa shunga o‘xshash asarlardan, manbalardan foydalanmay turib ish ko‘rolmaydi. Bu jihatdan Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” idagi Xudoyorxon, Musurmonqul, O‘zbekoyim va boshqa qahramonlarning talqini yoki “Mehrobdan chayon” dagi loaqal uchta buxorolik shaharlikning tili individuallashtirish sohasidagi mahoratini eslatib o‘tishi foydadan holi emas.

Bu o‘rinda “stil” so‘zining fransuzcha ekanligini, ilmiy atama sifatida ham tilshunoslik, ham adabiyotshunoslik doirasiga kirishi qayd etiladi. Eng qadimgi zamonlarda bu so‘z keng metoforik ma’nolarda qo‘llaniladigan bo‘ldi.

Uslubni adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tushunilish badiiy asarga yoki uning bir yozuvchiga qaratilganidir.

Lingvistik stilistika esa ikki asosiy ob‘yektiga ega: a) stil (uslub) til yoki nutqning bir ko‘rinishi sifatida, b) badiiy asar yoki yozuvchi tili stili.

Lingvistikaning keyingi ob‘yekti badiiy nutq stili tadqiq etilayotganda maydonga chiqadi. Shunga ko‘ra lingvistikaning asosiy ob‘yekti stilni til yoki nutqning bir ko‘rinishi sifatida o‘rganishdir.

Til stillariga oid bunday nazariyalarning keyinchalik g'arbda notiqlikka va stilistikaning taraqqiyotiga sezilarli ta'sir qilganligi, jumladan fransuz akademiyasi XVIII asrda stillarni (yuqori stil-klassik tragediyalar, tarzida) guruhlashtirishni eslatadi. Ayni choqda o'sha paytlarda nutqning uch ko'rinishi (stili) o'zaro farqlanib – past, o'rta, yuqori stil kabi atalganligi ta'kidlanadi. Shuningdek, davr o'tishi bilan milliy tillarning stilistik tizimida sezilarli o'zgarishlar yuz bergan bo'lsada, ammo antik olimlar boshlab bergan stillar klassifikatsiyasi til vositalarining qo'llanish darajasini aniqlashda ularni guruhlashda muhim ahamiyat kasb etayotganligi aytiladi.

Stil so'zi ilmiy atamadir. Zero, atamalar oddiy so'zlarga nisbatan o'zlarining ma'nosemantik xususiyati bilan farqlanishi kerak. Lekin stil atamasi boshqacha xususiyatga ega, ya'ni stil faqat lingvistik atamaologiya doirasida emas, balki adabiyotshunoslik va san'atshunoslik doirasiga ham kiradi. Shuningdek, u oddiy so'z sifatida ham tilda keng qo'llaniladi. Masalan, “ish stili” (uslub), “Boshqarish uslubi”, “Tarbiyalash uslubi”, “Erkin uslubda (usulda) suzish”, “Kombinasion stil” (shaxmatda) va boshqalar.

Bu so'z eng qadimgi zamonlarda yozish, ifodalash uslubi ma'nolarini bildirgan. Vilgelm Libknext o'zining xotiralarida stil so'zini xuddi shu ma'noda qo'llaydi. “O'n sakkizinchi bryumer”dagi so'zlar – o'q va nayzalardir; bu sharmandai-sharmisol qiladigan va tor-mor qiladigan uslubdir. Agar nafrat bildirish, la'nat yog'dirish erkinlikka o'tishni, muhabbat kuydiruvchi, yemiruvchi, davlat quruvchi so'zlar qachonlar ifodalangan bo'lsa, xuddi O'n sakkizinchi bryumer”da ifodalangan, unda Tapitning shiddatli g'azabi, Yuvinalining sharmandai-sharmisol qiladigan zaxarxandasi, Dantening muqaddas qahr-g'azabi bilan qo'shilgan. Bundagi uslub-stilisga, ya'ni rimliklar qo'lida bo'lgandek, o'tkir po'lat xanjarlarga aylangandek, bu xanjar bilan ham yozadilar, ham sanchadilar.

Uslub-hech xatar xatosiz naqd yurakka borib sanchiladigan xanjarlardir

Darhaqiqat, stilda muallif ijodiy shaxsning xususiyatlarini ifodalangani uchun bu soʻz keng, metoforik maʼnolarda qoʻllaniladigan boʻldi.

Stil tushunchasini tasviriy vositalar tizimi, sanʼatning oʻziga xos yoʻnalishi degan maʼnoda sanʼatshunoslik fani tomonidan keng qoʻllanilmoqda.

Adabiyotshunoslikda esa bu atamaga ikki xil yondashiladi. Bunday holat badiiy adabiyotning ikki tomonlama xususiyati bilan belgilanadi: badiiy adabiyot, bir tomondan adabiy til bilan, ikkinchi tomondan sanʼat bilan bogʻliq. Soʻz sanʼati namunasi sifatida badiiy adabiyot, adabiy til bilan ham, sanʼat bilan ham aloqadordir.

Koʻpgina adabiyotshunoslar stil (uslub)ni sanʼat hodisasi, estetik kategoriya sifatida keng tushuntiradilar. Bunday tushuntirishda badiiy asarlar tili, badiiy asar stiling komponentlaridan biri hisoblanadi. Stil yozuvchining butun ijodi davomida koʻzga tashlanuvchi asosiy gʻoyaviy, badiiy xususiyatlar (gʻoya, mavzu, xarakterlar, syujet va til) birligidan iborat. Badiiy asar stili,-deydi olim,-uning mazmuni emas, balki formasining xususiyatlaridir. Adabiyot nazaryasida toʻgʻri taʼkidlanganidek, mavzu tanlashdan tortib, voqyelikni badiiy aks ettirishi va talqin qilishidagi barcha xususiyatlarida koʻzga tashlanadi. Busiz badiiy tafakkur taraqqiyotini, adabiy ijoddagi asil yuksalishlarni aslo toʻla tasavvur etish mumkin emas”<sup>1</sup>.

Shunday qilib, uslub(stil)ni adabiyotshunoslik nuqtai-nazaridan tushunish badiiy asarga yoki aniq (konkret) yozuvchiga qaratilgandir.

Lingvistik stilistika esa ikki asosiy obʼyektga ega: a)stil (uslub) til yoki nutqning bir koʻrinishi sifatida, b) badiiy asar yoki yozuvchi stili.

Lingvistilistikaning keyingi obʼyekti badiiy nutq stili tadqiq etilayotganda maydonga chiqadi. Shunga koʻra lingvistilistikaning asosiy obʼyekti stilni til yoki nutqni bir koʻrinishi sifatida oʻrganishdir, degan xulosaga kelingan.

Olimlar, notiqar, yozuvchilar antik davrlardanoq u yoki bu til vositasini qoʻllash, aloqa vositasining xarakteri, sharoiti, mavzusi va maqsadi bilan bogʻliq

<sup>1</sup> Адабиёт назарияси. Икки томлик. 2-том. Т.1970йил 424 бет.

ekanligiga e'tibor bergan edilar. Til stillariga oid bunday nazariyalar keyinchalik Yevropada notiqlik va stilistikaning taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Jumladan, fransuz akademigi XVIII asrda stillarning quyidagicha klassifikatsiyasini taklif etdi: «Yuqori stil, - zamonaviy stil, klassik tragediyalar, odalar, ortorlar stili, roman, novellalar stili, folklor stili yoki soda stilli komediya, fare va masallar stili»<sup>1</sup>.

O'sha paytlarda nutqning uch ko'rinishi stilni o'zaro farqlagan. Past, o'rta va yuqori stil, shundan buyon milliy tillarning stilistik tizimsida o'zgarishlar yuz berdi, lekin til stillari yoki funksional stillar hozirgi davrda stilistika fanining markaziy atamasi bo'lib qoldi. Lekin bu atamaning aniq chegaralari hali ishlab chiqilganicha yo'q. Ana shu holat til stillarining tasniflash va o'zaro farqlash ishida jiddiy kamchiliklar bor. Til stillari yoki funksional stillar hozirgi davrda stilistika fanining markaziy atamasi bo'lib keldi.

Funksional stillar tilning funksionallashuvi bilan bog'liq ya'ni aniq nutqda, matnda o'ziga xos "Kompozision tizimlar" sifatida namoyon bo'ladilar. Yoki boshqacha qilib aytganda tilning turli yaruslari "fonetik, leksik, frazeologik, morfologik, sintaktik yaruslari" kabilarga taaluqli bo'lgan birliklar xilma-xil stilistik bo'yoqda bo'lishlaridan qat'iy nazar aloqa qilishning ma'lum doirasiga xizmat qilish uchun bo'ysundiriladi. Masalan, so'z tartibining erkin bo'lishi, to'liqsiz gaplar va boshqa soda gap turlarining keng qo'llash, xilma-xil takrorlashning ishlatilishi, og'zaki so'zlashuv nutqi uchun xarakterli xususiyatdir.

–Borasanmi? Rost ayt, borasanmi, bormaysanmi, a?

– Xo'p, mayli, boraman.

– Yur deyapman senga!

– Qayoqqa boraman?

– Uyga!

– Yo'q bormayman!"<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Потоская Н.Т. Стилистика современного французского языка. М. 1975. ст 13.

<sup>2</sup> С.Ахмад. "Уфк" 263 бет.

Xuddi shuningdek, inversiyaning deyarli bo‘lmasligi, matnning darak-hikoya formasida ifodalanishi, ta’sirlilik-badiiy tasvir elementlarining uchramasligi, ma’noning ikki xil bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik, qo‘shma gaplarni ko‘proq qo‘llashga moyillik kabi xususiyatlar rasmiy nutq stili uchun xosdir.

Umuman olganda, funksional stillarning klassifikatsiyasiga quyidagi ikki dalillar asos bo‘lib xizmat qiladi: a) ekstrolingvistik faktorlar (floqa qilish doirasidagi vazifalar); b) sof lingvistik faktorlar (til birliklarining stilistik differensiyasi) ga muvofiq, tilning funksional stillariga tavsif berayotganda ekstrolingvistik faktorni ham to‘la hisobga olish zarur.

Tilshunoslik tarixida, jumladan, rus va o‘zbek tilshunosligida juda ham ko‘p olimlar funksional stillarni guruhlashga, ularni o‘zaro farqlashga intilganlar. Lekin bu olimlarning bir guruhi funksional stillarni belgilashda ekstrolingvistik faktorlarni birinchi o‘ringa qo‘ygan bo‘lsalar, boshqa bir guruhi sof lingvistik faktorlarga tayanib ish ko‘rganlar. Masalan, professor A.M.Peshkovskiy qalamiga mansub stillarni til funksiyalariga ko‘ra guruhlashning akademik V.V.Vinogradov tomonidan taklif etilgan prinsipi katta shuhrat qozondi. “Tilning asosiy ijtimoiy funksiyalari (aloqa qilish, xabar uzatish va estetik ta’sir ko‘rsatish) inobatiga olingan holda tilning qurilishi umumiy rejada quyidagi stillarga bo‘linadi: og‘zaki so‘zlashuv stili (aloqa qilish funksiyasi), rasmiy muomala, rasmiy ish qog‘ozlari va ilmiy stillar (xabar uzatish funksiyasi), publistik va badiiy stillar(estetik ta’sir etish funksiyasi)”. Lekin olimlarning qayd qilishicha, ba’zan aloqa qilish doiralari bir-biriga mos kelmasligi ham mumkin, ya’ni til funksiyalariga nisbatan stillar ko‘pchilikni tashkil etadi. Ko‘rinadiki, tilning asosiy funksiyalarini bunday guruhlash olg‘a suradi. Stil hosil qiluvchi ob’yektiv faktorlarga tilning ifodalanish formalari (og‘zaki va yozma), nutqning turlari (monologik, dialogik nutq), aloqa usullari (ommaviy va shaxsiy), nutq janrlari (keng ma’noda ocherk, hikoya, roman, monografiya, ilmiy maqola, ma’ruza, majlis kabilar), fanning turlari (matematika, fizika, kimyo, adabiyotshunoslik, psixologiya singarilar), fikrni bayon qilish usullari (tasviriy,

munozarali, tanqidiy) kabilar kiradi. Bu xilma-xil ob'yektiv faktorlar stillarni va ularning ichki bo'linishlarini belgilaydi.

Uchinchi tip faktorlarga vaziyatli, ijtimoiy faktorlar nutq toni (yuqori tantanavor, tushkun); tinglovchini hisobga olish, nutqiy akt tipi (ikki tomonlama nutq, bir tomonlama nutq, nutq predmetining bevosita ishtiroki yoki yashiringani jarayoni kabilarni o'z ichiga oladi.

Bu faktlarning hammasi nutq xarakteriga bevosita ta'sir etadi, lekin ularning funksional stil hosil qilishidagi ishtirok etish darajasi bir xil emas.

Juda ko'plab stilist olimlarning ilmiy tadqiqotlari va bizning shaxsiy kuzatuvlarimiz shundan dalolat beradiki, hozirgi o'zbek adabiy tili tuzilishidagi funksional stillarni guruhlashda ularning o'zaro munosabatini o'rganishda yuqorida ta'kidlangan ekstrologistik ob'yektiv va subyektiv faktorlarni to'la hisobga olish muhim ilmiy va amaliy jihatdan yaxshi natijalarga olib keladi. Masalan, shu nuqtai-nazardan qaraganda, hozirgi o'zbek adabiy tilida quyidagi funksional stillar mavjud: ilmiy stil, rasmiy ish qog'ozlari stili, badiiy stil. Tilning jumladan, o'zbek adabiy tilining funksional stillari tuzulmasidagi badiiy asar tili (yoki badiiy nutq stillari) alohida o'rin tutadi"<sup>1</sup>.

Badiiy nutq stilining maqsadi o'quvchi yoki tinglovchiga estetik ta'sir etishdir. Shuning uchun badiiy nutq stilida til vositalaridan individual – ijodiy foydalanish, neologizmlar hosil qilish uchun katta imkoniyatlar mavjud bo'ladi. Bu imkoniyatlardan so'z san'atkorlari o'rinli foydalanmoqdalar. Misol uchun o'zbek tilida devor urmoq aniq hodisani ifodalovchi erkin so'z birikmasi mavjud.

Uslub-tilshunoslikda tilning alohida ma'no anglatish va ifodalash maqsadlarida xizmat qiluvchi fonetik, sintaktik vositalari lingvistik ta'rifga ko'ra tilning differensial turlaridan biri o'laroq, o'ziga xos lug'ati, frazeologik birikmalari, jumla va sintaktik qurilmalari bilan bo'lak turlaridan o'z ichki

---

<sup>1</sup> Мукаррамов М. “Ҳозирги ўзбек адабий тилининг стили” Тошкент. “Фан”. 1984 йил, 23-24 бетлар.

unsurlarining, asosan, ekspressiv ta'rifi xususiyatlari bilan tafovut qiluvchi lisoniy tizimdir"<sup>1</sup>.

Umuman olganda, o'zbek adabiy tilining funksional stillari orasida anchagina o'rganilgani badiiy nutq stilidir. Bu badiiy nutq stili anchagina o'rganilgan, lekin bu sohada maxsus va yaxlit ish qilinmagan.

Maktab darsliklarida ham keyingi yillarda stilistika, o'zbek tilining tuzulish stillari bo'yicha ma'lumotlar va qilingan ishlarning guvohi bo'ldik. Shunday qilib o'zbek adabiy tilining tuzulish stillarini stilistika fanining eng so'nggi yutuqlariga tayangan holda o'rganish "O'zbek tilining amaliy normativ stilistikasi", "O'zbek tilining badiiy stilistikasi", "O'zbek tilining qiyosiy stilistikasi" kabi mavzularda umumlashma xususiyatdagi ilmiy tadqiqot yaratish, funksional stillarda qo'llanilgan til vositalarining o'ziga xos va umumiy belgilarini aniqlash, o'zbek tilshunosligining muhim vazifalaridan biridir. O'zbek adabiy tilini uning badiiy stili va yozuvchining mahorati bilan bog'lab o'rganishga asosiy e'tibor qaratiladi. Umuman til stillari yoki funksional stillar hozirgi davrda stilistika fanining markaziy atamasi bo'lib qolganligi, lekin shu atamalarning aniq chegaralari hali ishlab chiqilmaganligiga o'z e'tiborini qaratgan. Bu esa hozirgi davr yoshlarimiz oldiga hal qilinishi lozim bo'lgan ulkan tadqiqotlarni olib borishga katta yo'l, vazifa yuklaydi.

Respublikamizda fonetikani o'rganish grammatikani o'rganishga nisbatan, umuman olganda ancha orqada qolgan. Masalan, tilshunos olimlarimizning ko'pchiligi asosan grammatika bilan mashg'ul bo'lib, darslarning tahlilida ham, imtihonlarning savollarida ham ko'pincha grammatik tahliliga e'tiborni qaratadilar. Shunga ko'ra, oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan talabalar va maktabni endigina bitirib oliy o'quv yurtlariga kirayotgan yoshlar ham odatda grammatik tahlilni nisbatan yaxshi bilishadiyu, lekin fonetik tahlilning talablariga nisbatan juda bo'sh bo'lishadi. Ular ko'pincha tovush bilan harfni, fonema bilan uning variantlarini farqlay olmaydilar va unlilar guruhining oddiy chizmasini

<sup>1</sup> Мукаррамов М. "Ҳозирги ўзбек адабий тилининг стили" Тошкент. "Фан". 1984 йил, 23-24 бетлар.

ham chizib bera olmaydilar. Ularning ba'zilar hatto fonetik tahlilining borligi to'g'risida yetarli darajada xabardor ham emaslar. Bu hol, bizningcha, birinchidan, alfavitimizning belgi tanlash sohasidagi kamchiligi bilan izohlansa, ikkinchidan, yuqorida aytilganidek Respublikamizda fonetikaning umuman olganda kam o'rganilganligi bilan izohlanadi. Holbuki fonetikaning yaxshi o'zlashtirilishi bevosita savodxonlik bilan, orfografiya qoidalarini yaxshi o'zlashtirish bilan ham bog'liq bo'lib, u tilni yaxshi o'zlashtirishga asos bo'lib xizmat qiladi. "Bu aytilganlarning ustiga fonetik stilistika masalasi ham hali deyarli o'rganilmagan. Xolbuki, bizningcha, bu sohani ham o'rganish va uning rivojlanishiga turtki berish payti allaqachonlar yetib kelgandir"<sup>1</sup> – deydi professor X.Doniyorov.

Ma'lumki, "fonostilistika atamasi tilshunoslikda birinchi marta N.S.Trubenkov tomonidan taklif qilingan edi". Keyinroq bu soha "tovush stilistikasi" – deb ataladigan bo'lib qoldi". O.S.Axmanov lug'atida fonetik stilistikaga quyidagicha izoh beriladi: "Fonetik stilistika so'z variantlaridagi ekspressiv xususiyatlarini o'rganuvchi stilistikaning bo'limidir"<sup>2</sup>.

Bizningcha, bu ta'rifni yanada to'ldirish lozim. Chunki, fonetik stilistika faqat so'z va so'z birikmalarinigina emas, balki so'z ma'nolarini farqlash va gap jumla, abzas, butun bir matn doirasidagi fonoekspressni xususiyatlarini ham tekshiradi. Masalan, turkiy tillarning hammasi uchun xos bo'lgan singarmanizm qonuni aslida fonetik hodisa bo'lishiga qaramasdan, u tilga, shu jumladan adabiy til, badiiy stilga uch aspekt bo'yicha xizmat qiladi. 1) talaffuzni aniqlashga, 2) ma'noni farqlashga, 3) qo'shimchalarni o'zakning xarakteriga moslab to'g'ri qo'llashga yordam beradi. Birgina ana shu dalilning o'zi ham fonetik stilistikani o'rganishning qanchalik ahamiyati borligini so'zsiz tasdiqlaydi. Shunga ko'ra, fonetik stilistika ma'lum bir tildagi barcha fonetik vositalarning ekspressiv tomonlarini o'rganuvchi sohadir.

<sup>1</sup> X.Дониёров. "Адабий тил ва бадий стил". Т. 71 – бет.

<sup>2</sup> Ахманова О.С. "Словари лингвистических терминов". М. 1969 й. 199 бет.

Garchi “Fonetik stilistika” atamai tilshunoslikka nisbatan keyinroq kirib kelgan bo‘lsa ham, tovushning stilistik imkoniyatlari juda qadimdan o‘rganib kelinmoqda. Masalan, Aristotel “asosiy tovush (bo‘linmaydigan ma’no beruvchi tovush)” va “bo‘g‘in (mustaqil ma’noga ega bo‘lmagan tovush yoki tovushlarning birikmasi)” tovushlarini bir-biridan farqlaydi hamda ularning poetik asar yaratilishida xizmat qilishini alohida ta’kidlaydi<sup>1</sup>. Bu esa antik davrdanoq olimlar tovush va bo‘g‘inning ekspressiv funksiyalaridan yaxshi xabardor ekanligini ko‘rsatadi. Xuddi shuningdek, A.Navoiy, Lutfiy, Sakkokiylar ham tilimizning tovush imkoniyatlaridan foydalanib, ajoyib so‘z o‘yinlari yaratganlar. Hozirgi vaqtga kelib, adabiyotshunos va tilshunos olimlarning bu masalaga doir chuqur ilmiy tadqiqotlari yaratilgan. Bundan tashqari, fonoestetika adabiy tilning turli funksional stillariga, jumladan, og‘zaki so‘zlashuv, notiqlik, rasmiy hujjat, ilmiy, publistik va badiiy stillardagi materiallarning akustik-artikulyasion va prozadik (bo‘g‘in bilan aloqador) xususiyatlarini ham o‘rganadi. Shu jihatdan, stil tushunchasi talaffuz, orfoepik norma masalalari bilan ham aloqador. Talaffuz stili deyilganda turli shart-sharoitlarda o‘zaro farqlanuvchi talaffuz ko‘rinishlari tushiniladi. Masalan, akademik L.U.Shcherba “Turli talaffuz stillari va so‘zning idial fonetik tarkibi haqida” (1945) nomli ishida quyidagi ikki talaffuz stilini farqlagan edi: 1) to‘liq bo‘lmagan talaffuz stili yoki so‘zlashuv stili va 2) to‘liq talaffuz stili. Birinchisi uchun tez so‘zlashuv, talaffuzni qisqartirish kabi xususiyatlar bo‘lsa, keyingisiga normal va aniq talaffuz xosdir. Bu masalalarni o‘rganish ham fonetik stilistikaning oyekti sanaladi.

To‘g‘ri, adabiy tilimizning yuqorida qayd qilingan funksional stillari bir xil fonoekspressiv imkoniyatlariga ega emas. Masalan, rasmiy hujjat stili va ilmiy stilning fonoekspressiv tomoni ancha kuchsiz bo‘lsa, badiiy stil (ayniqsa uning she’riy nutq ko‘rinishi) va publisistik stil fonostilistik vositalarga boyligi bilan ajralib turadi. Jumladan, poeziyada (she’riy nutqda) tovush, bo‘g‘in, urg‘u va intonasion ahamiyati kuchlidir.

<sup>1</sup> Аристотел. Поэтика (проэзия санъати ҳақида). Тошкент 1980 йил 40-бет.

Umuman olganda, she'riyatda va ba'zi proza asarlarida fonemalarning oppozitsiyalari, so'z va so'z birikmalari oralig'idagi chegara signallari emosional va logik urg'uning farqlanishi, intonasiyaning turli variantlarida qo'llanishi aniqroq ko'zga tashlanadi. Biz ushbu o'rinda fonetik stilistikaning hamma masalalari bo'yicha emas, balki aniq bir masala bo'yicha – tiloldi va tilorqa o' hamda qisman o va u tovushlarini yozish va xususan ularning talaffuzi bilan bog'liq bo'lgan aniq masala ustida o'z fikr va mulohazalarimizni bayon qilib, shu yo'l bilan e'tibordan biroz chetda qolib ketayotgan fonetik stilistikaning ahamiyati va uning kun tartibiga kiritilishi lozim bo'lgan masalani ko'tarib chiqmoqchimiz.

Biz yuqorida fonetikaning va poetik stilistikaning kam rivojlanganligiga birinchi sabab qilib, amaldagi alfavitimizning belgi tanlash sohasidagi kamchiligi ekanligini aytdik. Endi ana shu da'vomizni kengroq qilib, izohlashga va dalillar bilan isbotlashga kirishamiz.

Ma'lumki, Rus, Ozarbayjon, Turkman, Tatar, Uyg'ur, Chuvash, Yoqut kabi turkiy va turkiy bo'lmagan, hatto butun dunyo tillarida ham lablanmagan tilorqa, keng unli hisoblangan o tovushi boshqa tillarda lablanmagan keng unlining belgisi bo'lgan o shaklida qabul qilingani holda, bizda lablashgan o'rta keng unlining belgisi bo'lgan o shaklida beriladi. Natijada bizning o tarzida o'qilishi lozim bo'lgan unli tovushimiz boshqa turkiy bo'lmagan xalqlar tomonidan o tarzida o'qiladi. Ya'ni bizning oy, soy, olim, ona, non, oq, boy singari so'zlarimizni boshqalar talaffuzida o'y, so'y, o'lim, o'na, no'n, o'q, bo'y deb o'qishga majbur bo'ladilar. Chunki rus tili orqali kirgan so'zlarda biz bu tovushni, haqiqitdan ham, lablangan o'rta keng o qilib o'qiymiz. Masalan, tok (energiya), tom (jild) kabi. Shuning uchun ham bu so'zlarning qaysi tilga taalluqli ekanligini bilmagan ba'zi kishilar tomonidan rus va boshqa turkiy tillardagi moda, tog', bo'y, o'z, qo'l, tom, oz, qol kabi so'zlar bunda, to'k, buy, yo'l tarzida o'qilishi lozim bo'lgan so'zlar bizda ba'zan aralashtirilib (ota, ona so'zlaridagi o

bilan) moda, toq, boy, ov, qol, qosh, yol, tom tarzida o‘qiladiki, bu so‘z ma’nolarini ham o‘zgartirib yuboradi.

Bunday chalkashlikka barham berish uchun albatta, shunga sabab bo‘lgan nuqsonlarni, ya’ni birinchidan, o‘zbek tili alfavitidagi unilarga tegishli bo‘lgan ayrim belgilarni tuzatish kerak, ikkinchidan, talaffuz va fonetikani o‘rganish ishini to‘g‘ri yo‘lga – ishga solish kerak bo‘ladi. Ya’ni a ni bu tovush boshqa tillarda qanday bo‘lsa, o‘zbek tilida ham uni xuddi shunday belgi bilan yozish kerak va o‘zbek tilidagi a (o) ning o‘ziga xos xususiyatini og‘zaki nutq va orfoepiyada saqlash kerak. Masalan, o‘zbek tilidagi bosh, qosh kabi so‘zlarni hozirgiday qilib emas, balki boshqa deyarli hamma tillarda bo‘lgani singari bash, qash shaklida yozish kerak bo‘ladi. Orfografiyamizdagi hozirgi a ning vazifasini lotin grafikasidagi a belgisi bilan əkə, kərəm, təbək, sətəng, kəttə, səmən shakli bilan berish kerak va uni o‘zbek tilining faqat o‘ziga xos bo‘lgan tovush sifatida minimal darajada kam qo‘llash ham mumkin. Shuningdek, hozirgi o‘zbek alfavitidagi u o‘rniga o belgisini qo‘llash kerak bo‘ladi. Ya’ni taklifimizga ko‘ra bosh, qosh, osh kabi so‘zlar hozirgiday tarzda emas, balki bo‘sh, qo‘sh, o‘sh tarzida o‘qiladi.

Ma’lumki, turkiy tillarning hammasida uzoqda kelgan oldingi unli tovush o‘zining qattiq yumshoq xarakterini so‘z oxirida kelgan unli tovushga yoki affiksga kelgan unli tovushga qisman undoshlarga ham to‘liq ravishda o‘tkaziladi. Shuning uchun ham turkiy tillar tabiatiga ko‘ra bir so‘zda, xususan, bir o‘zakda unli tovushlarning hammasi yo til oldi qismida, yoki uning orqa qismida bir xil qilib, bir xil artikulyasion qulaylik tug‘diradi, lekin hozirgi alfavitimiz va orfografiya qoidalarimiz yozuvda bunga yo‘l bermaydi. Natijada bir tomondan, fonetik stilistika bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘pgina ma’no cheklanishlari yuzaga kelib chiqmoqda. Ikkinchidan, artikulyasiya jarayoni og‘irlashmoqda. Uchinchidan esa, tilimiz asl tabiatiga yaratib berilgan va asrlar davomida xizmat qilib kelayotgan imkoniyatlardan bir qismi aniq aks etmay asta-sekin chetga chiqib qolish hollari yuz bermoqda.

Bu hodisaning oldini olmoq uchun va tilimizning soʻz oʻzagidagi unli tovushlar imkoniyatini toʻliq ishga solish uchun, avvalo o (oʻ) belgining oʻzagi ogʻzaki adabiy tilimizdagi talaffuziga moslashtirib ikki xil oʻqish va ikki xil yozish kerak boʻladi. Masalan, tiloldi u uchun o belgisini (goʻzal, oʻzak, goʻdak, oʻrdak, boʻlak) va tilorqa oʻ uchun o belgisini (ochoq, oq, toq, qosh, qoriq, qol) kabi qoʻllash kerak boʻladi.

Darhaqiqat, ogʻzaki adabiy tilimizda, jonli xalq tilida, xalq shevalarining deyarli hammasida va eski adabiy tilda fonema (tiloldi va tilorqa fonema) sifatida talaffuz qilinuvchi va koʻpgina oʻrinlarda bir xil pozisiyada ham ikki xil maʼno anglatuvchi bu tovushlarni amaldagi alfavitimizda bir necha kamchiligi bor: birinchidan bu belgining zohiran koʻrinishi koʻproq tor lablangan unli u ga oʻxshab ketadi va shu tashqi oʻxshashlikning oʻzi ham kishini chalgʻitadi. Jumladan, rus va boshqa til vakillari uni koʻpincha, yu deb talaffuz qilishadi.

Ikkinchidan, hozirgi vaqtda boshqa xalq vakillarigina emas, koʻpincha oʻzbeklar ham aslida tilorqa unli tovushlaridan iborat boʻlgan bu ikki unlini faqat bir tovush sifatida talaffuz qilmoqdalar. Natijada fonetik stilistika bilan bogʻliq boʻlgan jiddiy maʼno chalkashliklari yuzaga kelib chiqmoqda.

Maʼlumki, tilimizda mavjud boʻlgan oʻr, toʻr, oʻt, boʻz, oʻz, boʻl, toʻla soʻzlarining har biri tiloldi yoki tilorqa qismida talaffuz qilinishiga qarab har xil eshitiladi va kamida ikki xil maʼno beriladi. Masalan, oʻr soʻzi tiloldida talaffuz qilinsa, bugʻdoy oʻr, sochini oʻrmoq, yuqorilamoq (oʻrmalamoq) va oʻr (oʻjar) maʼnolarini beradi. Bu soʻz tilning orqa qismida talaffuz qilinsa, baliq yoki qush ovlaydigan toʻr, toʻr qovoqning toʻri kabi maʼnolarni bildiradi. Oʻt soʻzi til oldida talaffuz qilinganda oʻtmoq, feʼl ini va kishi organizmidagi oʻt xaltasini bildiradi. Bu soʻz til orqa qismida talaffuz qilinganda, olov, maysa maʼnolarini bildiradi. Boʻz soʻzi til oldida talaffuz qilinganda, gazmolning bir turi maʼnosini anglatasa, bu soʻz til orqa qismida talaffuz qilinsa, boʻz yer, boʻz ot, boʻz yigit maʼnolarini bildiradi. Oʻz soʻzi til oldida talaffuz qilinsa, oʻzlik olmoshini yoki oʻziga tegishlilikni bildiradi. Bu soʻz til orqa qismida talaffuz qilinsa, oʻzmoq feʼl i

ma'nosini anglatadi. Bo'1 so'zi til oldida talaffuz qilinsa, biror narsani maydalamoq, parchalamoq, bo'lmoq, taqsimlamoq ma'nolarini bildiradi. Bu so'z til orqa qismida talaffuz qilinsa, to'lganlikni anglatadi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan so'zlarning ma'no o'zgarishi asosan bir so'znigina talaffuziga bog'liq emas, aksariyat holda shu so'z tarkibidagi (o'zakdagi yoki birinchi bo'g'indagi) birgina unlining talaffuziga bog'liq. Fonetik stilistika o'zbek adabiy tilining talaffuzining xuddi ana shunday masalalarini tartibga solishga bevosita ishtirok etishi lozim.

Darhaqiqat, bu hol shu unlining til oldi yoki til orqa qismida aytilishiga bog'liq. Chunki u til oldi qismida aytilsa yumshoq, mayin bo'lib eshitiladi. Shu tufayli bir ma'noni anglatadi. Tilning orqa qismida aytilsa, qattiq eshitiladi, boshqa bir ma'noni bildiradi. Demak, uning til oldi yoki til orqa ekanini topaman deb, belgisiz abstrakt ravishda bosh qotirib o'tirgandan yoki uni buzib talaffuz qilib yurgandan ko'ra, aslida ikki fonemadan iborat bo'lgan bu unlini ikki belgi bilan berish maqul. Bunday qilingan taqdirda savodxonlik ham osonlashadi. Tilimizning imkoniyatlari ham to'liq ravishda amalga oshadi, u to'liq rivojlanadi.

Shunday qilib, o'zbek og'zaki adabiy tilidagi til oldi u va til orqa o'tovushlari ham mustaqil fonemalaridir. Chunki ular ham o'ziga xos aytilish, o'ziga xos eshitilish va alohida ma'no ajratish xususiyatiga ega. Demak, fonetik stilistikani ham fan sifatida qancha tez o'rgana boshlasak, tilimiz uchun shuncha katta foyda bo'ladi.

## **2.2. Badiiy stil va uning boshqa uslublardan farqli tomonlari**

Uslubning har bir turi bir-biridan ijtimoiy hayotning u yoki bu tomonlariga xizmat qilishi bilan farqlanadi. Badiiy uslub esa hayotning barcha sohalariga tegishliligi, barchaga barobarligi bilan boshqa uslublardan farqlanib turadi. Chunki badiiy adabiyotda bayon etilayotgan voqea-hodisalarning ko'lami o'ta keng bo'ladi.

Badiiy nutqda o'quvchiga, tinglovchiga emosional va estetik ta'sir ko'rsatish asosiy maqsad qilib olinadi. Uslubning bu turida til vositalaridan

foydalanishda algaratlanish holatining yo‘qligidir. Bu uslubda badiiy uslubga xos (shahar uzra, radio to‘lqinlari orqali), rasmiy uslubga xos (shunga ko‘ra, shu asosda, ushbu akti tuzuvchilar, berildi ushbu ma’lumotnoma), ilmiy uslubga xos va so‘zlashuv uslubiga xos so‘zlarni ham, maxsus terminlarni ham uchratish mumkin.

Badiiy uslubda muallifga katta imkoniyat beriladi. Chunki, asarning estetik ta’siri kuchini oshirish, obrazlarning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish, badiiy ta’sir vositalaridan foydalanishda muallif bu imkoniyatlardan foydalanadi.

Bo‘stonga o‘xshagan kolxozlardan o‘ntasini bita-bitta chinchalog‘ingiz bilan ko‘tarasiz!

... Sinchalak degan qushchani bilasizmi, oyog‘i ipday... Shu qush: “Osmon tushib ketsa, ushlab qolaman”, deb oyog‘ini ko‘tarib yotar ekan!” – deb undan kulsa, Saida ham hozirjavoblik bilan shu mazmunga teng qochiriq qiladi: “dunyoda bunaqa jonivorlar ko‘p, Arslonbek aka, - deydi, xo‘roz ham: men qichqirmasam, tong otmaydi” deb aytar ekan, - deydi.

Yuqorida qayd etilganlardan xulosa qiladigan bo‘lsak, badiiy nutq uchun quyidagilar xarakterli hisoblanadi:

1. Til materiallaridan foydalanishda mubolag‘aning o‘rinli tarzda keng qo‘llanilishi;

Dexqonboy (shavq bilan) Bir vaqti kelib Mirzacho‘l ham shunaqa eskidan qolgan ot bo‘lib qolsa, kelgan “Buning nimasi Mirzacho‘l? Nima uchun Mirzacho‘l?” desa! Mening orzuim, bizning orzuimiz shu!

Yoki: Oppoq choyshab yopib dala, qir,  
Qor qo‘ynida uxlab yotadi.  
Kumush tabiatla nozlanib,  
Kiprik suzib tonglar otadi

(Uyg‘un)

2. Ko‘chma ma’nodagi so‘z va iboralarning badiiy tasvir vositalarida keng qo‘llaniladi. Masalan:

Tog‘a. Fermada uch yuz bosh qoramol bor edi, hammasi turibdi, tuyoq but!  
Haydar (darg‘azab). Tuyoq but, mol yo‘q! Zotli sigirlar o‘rnida oriq buzoqlar turibdi.

3. Ilmiy texnik terminlar boshqalariga nisbatan kam qo‘llaniladi.  
4. Ritorik so‘roq, so‘roq gaplar, his-hayajonli gaplar, undov so‘zlar ko‘proq ishlatiladi. Chunki bunday holatlar badiiy asar tiliga emosionallik beradi.

Kurashadi ikki to‘lqin, qarab turaymi?

Yosh tarixning temir yo‘lin ketga buraymi?

Yoki

Nega rayonimiz hamon orqada?!

Nega ro‘yxatning oxiridamiz?!...

... Afsus va nadomatlar bo‘lsinkim, hozir bir qancha joxil ta‘magirlar chiqib, biri eshonlik, biri imomlik va biri qozilik va biri so‘filik da‘vosi bila ilm va fazilat ahillariga aziyat yetkazmoqdalar.

Shu vajdan iltimosimiz buldirki, muborak qalamlarini g‘azab davotiga botirib, mazkur odamlarni gazetada sharmandayu sharmsor qilsalar. Faqir jami yozuvchilarimizni asar va ash‘orlaridan bahramand bo‘lib, har dasturxon ustida duoi jonlarini qilamiz. Bu mutoalalar hosiyatidan o‘zida ham andak ta‘bi nazm bo‘lib, bir qancha hazillar yozdim...

(A.Qahhor. “Maktub”).

5. Takror so‘zlarning keng qo‘llanilishi badiiy uslubning ravonligini ta‘minlaydi:

... Bu yerda

na g‘urbat,

na ofat,

na g'am.  
 Bunda bor harorat  
 muhabbat,  
 shavqat.  
 Va mehnat nonini ko'ramiz baham.  
 ... Tong yaqin,  
 tong yaqin,  
 oppoq tong yaqin.

(G'ofur G'ulom).

Xulosa qilib aytganda, badiiy uslubning boshqa uslublardan farqlab turuvchi eng muhim belgilari quyidagilardir.

1. O'quvchiga yoki tinglovchiga estetik ta'sir etish birinchi maqsad qilib qo'yiladi;
2. Bu uslubda barcha uslublarning aralash qo'llanilishi va so'z qo'llash borasida chegara yo'qligi;
3. Bu uslubda shoir yoki yozuvchining xalq maqollaridan, iboralaridan ijodiy foydalanishga ega ekanligi;
4. Til materiallarini tanlash va ishlatishda ham uslub xususiyatlarini e'tiborga olish ham shu uslubga xos ekanligi (oraz, yuz, bet, aft, bashara, turq, xush, jamol, ko'rk kabilardan).

Xulosa qilib aytganda, barcha yozuvchilar qatori Abdulla Qahhor ham har bir asarida uslubning barcha turlaridan foydalangan holda asar tilini jonli, shirali, mantiqiy, emosional chiqishiga harakat qilganligini ko'ramiz. Abdulla Qahhor nafaqat asarlari tiliga, unga mavzu tanlashga ham alohida e'tibor qaratadi. Masalan:

Qumrixon. Dehqon akamning didiga tan berdik.

Anorxon (uyalib). Unday demang, kesak bilan bir solaman.

Dialektizmlarning turli xil ko‘rinishlarini so‘zlashuv nutqida ham badiiy asar tilida ham uchratish mumkin. Masalan:

Munda solikka tafovot buldi – fosh,  
 Angla mehrobu, munga but bo‘ldi bosh.  
 Bo‘ldi o‘z irfoni har kimga sifat,  
 Ko‘p tafovut qildi paydo ma’rifat.

... Jiyakni tikib o‘tirar, uzundan-uzoq, bitmas tunganmas cho‘pchaklarni aytishni o‘zi ham yoqtirar edi.

(Oybek).

Ma’lumki, kishilarning o‘zaro so‘zlashuvlarida ayrim so‘zlarni aytishdan, ayrim hayvonlarning nomini tilga olmaslikka harakat qilish hodisasi tez-tez uchrab turadi. Shuning uchun bo‘lsa kerakki, kishilar o‘z nutqlarini madaniy, yoqimli, odoblilik qilishga, o‘z nutqlarida yoqimsiz so‘zlardan qochishga harakat qiladilarki, bu bevosita so‘zlashuv nutqi hodisasi bilan bog‘liq hodisadir.

Demakki, so‘zlashuv nutqiga xos evfenizmlar stilistik hodisa bo‘lib, tilning tasviriy vositalaridan biridir.

Ma’lumki, badiiy asarda uning qahramonlarining o‘zaro suhbatlashishlari, muloqotga kirishishlari tabiiy. Yozuvchi esa o‘z asarida ayni bu hodisalarni berishga (jonli holatda) harakat qiladi.

Asarda ishtirok etayotgan qahramonlarning kundalik hayotiy nutqlari qanchalik hayotiy, tabiiyroq, emosional, jo‘shqinroq berilishi – bu yozuvchining mahoratiga bog‘liq.

Masalan:

“ Viloyatning otliq va yayoq cheriklariga qadagan tova bola tevochilar va muxassislar yuborildi. Qanbar olig‘a va yana harne viloyatlarga borg‘on chereklarga ehtimom bila tavochilar choptiribdilar va ketmon va boltu va nekim bo‘lg‘oni cherik masalih va asbobag‘a ehtimonlik muxassislar tayin qalindi”.

...Yana biri Xo‘janddur. Andijondin g‘arb sorina yigirma besh yunch bu yo‘ldur. Xo‘janddin Samarqand ham yigirma besh yinch yo‘ldir, qadim shaharlardandur. Shayx Mushlaxiddin va Xo‘ja Kallox Xo‘jandtindurlar.

Mevasi forovon va bisyor yaxshi bo‘lur. Anori yaxshilikka mashhurdur. Nechunkim, “Sebi Samarqand” derlar va “anari Xo‘jand” derlar. Vale bu tarixda Marg‘ilon anari ko‘p ortiq.

Qo‘rg‘oni baland yerda vaqs bo‘lubdur. Sayxun suyi shamol janubidan oqar...”.

Keltirilgan parchalardan ko‘rinadiki, qaxramonlar nutqidagi so‘zlashuv nutqiga xos bo‘lgan elementlar o‘z tabiiyligi bilan har bir qahramon nutqini o‘ziga xosligini ta‘minlashga xizmat qilgan. Badiiy asarda obrazlar, qaxramonlar tilining tabiiyligi har bir obrazning hayot ta‘siri, kasb-koriga ko‘ra so‘zlashuviga keng yo‘l ochadi. Shuning uchun ham badiiy asar qaxramonlaridan, deylikki, dehqon nutqi bilan ziyoli nutqi, kolxozchi dehqon nutqidan, ilg‘or zamonaviy ishchining nutqi, din homiysi bilan olimning nutqi farqlanib turadi.

Masalan:

Himmat oti orqasida urdi zin,  
 Hur kishikim qildi qanoat giryon...  
 Er kishiga himmati oliy kerak,  
 O‘zgacha bir darzli hole kerak...  
 Tavsini davlatga minar ul kishi.  
 Sidqi talab yo‘lida bo‘lsa ishi...  
 Katta degan xotiri darvesh erur.

Yuqorida qayd etilgan farqlar shaxslarning kasb-korini, dunyoqarashini, qaysi tabaqaga mansubligini, uning ijtimoiy ahvolini tipiklashtirish imkonini beradi.

Demakki, asar qahramonlarining nutqini tipiklashtirish, uni o‘ziga xosligini ta’minlash, bu nutqning tabiiylikini ta’minlash demakdir.

Har qanday milliy adabiyot o‘zida uch muhim elementlarni mujassamlashtiradi:

1. Har qanday badiiy asar tili adabiy til normalariga mos keluvchi leksik-grammatik elementlariga ega bo‘lishi. Bu holat ko‘proq yozuvchining nutqiga va obrazlar nutqiga mujassamlashadi.
2. Og‘zaki – so‘zlashuv tili elementlari. Og‘zaki – so‘zlashuv tiliga xos leksik, morfologik, sintaktik, fonetik hususiyatlar obrazlarning dialogik va monologik shakldosh so‘zlashuv nutqi uchun xos ekanligi.
3. Dialektlar va mahalliy shevalarning o‘ziga xos xususiyatlari.

Bu hol qahramonlarning monologik va dialogik nutqlari uchun xos bo‘lib, nutqning o‘ziga xosligini ta’minlaydi.

Masalan:

... Xotin oldin eriga savol berdi, keyin taajubdan ko‘ra tashvishni ifoda qilgan bir tovush bilan:

- Nevlat, - dedi,- hujrasida kitob o‘qiyotganmikan, deb ko‘rsam, u yerda ham yo‘q.

- Otlarga beda solgani chiqqandir-da, bo‘lmasa?

- Nevlat.

(U. Ismoilij)

Yuqorida qayd etilganlarga asoslanadigan bo‘lsak, adabiy til bilan badiiy til bir xil hodisa bo‘lmaganidek, so‘zlashuv nutqi bilan so‘zlashuv nutqining badiiy adabiyotgani ifodasi ham o‘zaro teng emas. Ammo so‘zlashuv nutqi elementlarining badiiy adabiyotda aks etishi badiiy adabiyotda so‘zlashuv nutqi elementlarni o‘zida ifoda etuvchi va hozirda ham, kelajakda ham uni saqlab qoluvchi manbaligi shubhasizdir. Umuman olganda:

- Badiiy adabiy til adabiy tilning ham ogʻzaki, ham yozma shakliga daxldordir.

- Badiiy adabiyotdagi obrazlar nutqi adabiy tilning ogʻzaki shakli orqali bogʻlanadi.

- Badiiy adabiyot tilini asosan soʻzlashuv nutqi namunalari tashkil etadi. Ammo ular koʻpincha mos kelmasligi mumkin.

- Badiiy adabiyotdagi soʻzlashuv nutqi namunalari adabiy til bilan adabiy tilning ogʻzaki shakli orqali bogʻlanadi.

Koʻrinadiki, soʻzlashuv nutqi badiiy tilni adabiy til bilan bogʻlovchi vosita hamdir.

Shu narsani alohida taʼkidlash kerakki, soʻzlashuv nutqi namunalari turli yozuvchilar asarida turlicha holatda oʻz ifodasini topishi ham mumkin.

Masalan: Dramatik asarlarda soʻzlashuv nutqi namunalarining oʻrni:

1. Damma tili.
2. Soʻzlashuv nutqi.
3. Drama tilida soʻzlashuv nutqining oʻrni.

Sheʼriyatda soʻzlashuv nutqi namunalarining oʻrni:

- a) poetik nutqi;
- b) soʻzlashuv nutqi;
- d) poeziyada soʻzlashuv nutqining oʻrni.

Demakki, soʻzlashuv nutqi normalarining badiiy adabiyot tilidagi ifodasi turli darajada ekanligi koʻrinib turibdi. Chunki yozuvchilar bilan yozuvchilargina emas, hattoki asarlar tigina emas, balki bir yozuvchining qalamiga mansub boʻlgan bir necha asarlar ham oʻzaro farqlanadi.

Xulosa qilib aytganda, soʻzlashuv nutqi oʻzining yashash shakllariga koʻra bir necha koʻrinishlarga ega:

1. Kundalik soʻzlashuv nutqi;
2. Adabiy soʻzlashuv nutqi;

3. So‘zlashuv nutqining badiiy adabiyotdagi namunasi.

Xullas, so‘zlashuv nutqi va so‘zlashuv nutqining badiiy adabiyotdagi namunalari normalangan adabiy so‘zlashuv nutqining dialektal so‘zlashuv nutqi kabi ko‘rinishlarga ega bo‘lishi mumkinligini jihatidan ham farqlanadi.

### **2.3. Badiiy stilning o‘rganish muammolari**

Ishimizning kirish qismida qayd etganimizdek, badiiy adabiyotda til materiallari muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun ham “Adabiyotning birinchi elementi tildir”, deyilishi bejiz emas.

Buyuk mutafakkir, buyuk tilshunos olim, yetuk adabiyotshunos, davlat arbobi, faylasuf bobokalonimiz Alisher Navoi ham tili shirasiz asarni jonsiz tanga o‘xshatadi, so‘zni dil qulfining kaliti deb biladi va o‘z o‘rnida to‘g‘ri ishlatilgan har bir so‘z nutqning aniqligini, ifodaviyligini ta‘minlashini alohida ta‘kidlaydi.

Barcha ko‘ngil durdu aro javoxir ul

Barcha og‘iz huqqasida gavhar ul.

Zaxriddin Muhammad Bobur esa, badiiy adabiyotdagi, yozuvdagi dabdababozlik, jimjimadorlik, noo‘rin ko‘tarinkilik badiiy adabiyotning, yozuvning tiliga salbiy ta‘sir ko‘rsatishini alohida ta‘kidlaydi; o‘zi bunday g‘alozliklardan qochadi. Buni biz o‘z o‘g‘li Humoyunxonga yozgan xatidan ham ko‘ramiz.

“... Xat bitarda takalluf qilay deysen, ul jihatdan mutlaq bo‘ladur. Betakalluf va pok alfoz bila bit, senga ham tashvish oz bo‘lur va o‘quvchiga”.

Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yoxud ahloq” asarida badiiy asar tilining sofligi, ravonligi haqida quyidagilarni yozgan edi:

“... moshkichiri qilib aralash-quralash qilmak tilning ruhini buzadir”.

Badiiy asarda tilning hal qiluvchi o‘rni haqida, hamda asar tilining go‘zal va sermazmun bo‘lishi lozimligi to‘g‘risida A. Qodiriy, Oybek, Abdulla Qaxxor,

Gʻafur Gʻulom, Hamid Olimjon va boshqa yirik soʻz ustalari ham qimmatli muloxazalar bayon etgan edilar. Jumladan, A. Qodiriy oʻzining “Oʻtgan kunlar”, “Mexrobdan chayon” asarlarida badiiy nutq sanʼatining gʻoyat samarali uslubi namunasini koʻrsatadi.

Fikrimizning isboti uchun quyidagi parchaga diqqatingizni tortamiz:

Otabek Kumush qabrini qanday ziyorat qilganligini eslaylik:

“... Kecha oydin, qabriston tip-tinch, uzoqlardan qurʼon tilovati eshitilar edi. Ikki tup chinor butoqlariga qoʻnib oʻtirgan uch-toʻrtta boyqushlar qabr yoniga tizlangan Otabek va yuqori, quyi doʻmpaygan qabrlar bu tilovatga somi kabi edilar. Kurʼon oyatlari qabriston cheta ogʻir ohangda oqar edi. Qabr yonida tiz choʻkkan yigitning koʻz yoshlari ham qurʼon oyatlariga qoʻshilib oqar edi. Biron saittan keyin tilovat toʻxtadi. Otabek holsizlanib oyoq uzra turdi va orqasidagi yarim yalangʻoch koʻlankani koʻrib, bir necha qadam qabr tomonga tislendi...

Koʻlanka yalingansimon unga yaqin yurib keldi...

- Kim bu?
- Men Kumush...

Otabek tovush egasini tanidi. Bu majnuna Zaynab edi

- Ket mundan.
- Men Kumush... - dedi yana Zaynab, ammo ketmasdan iloji qolmadi. Zeroki, dunyodagi eng yaqin kimsasi unga “ket” amrini bergan edi. Zaynab orqasiga qaray-qaray Otabekdan uzoqlashdi”.

Shuning uchun ham Abdulla Qodiriy tilning ijtimoiy oʻrniga katta ahamiyat berib:

“Yosinsiz xotiraga kelgan har bir soʻzdan, jumladan toʻqimoq fazilat sanalmaydir. Soʻz – qolip, fikr uning ichiga qoʻyilgan chigit kabi boʻlsin, koʻpchilik xumdonidan pishib chiqqach, yangi hayot ayvoniga asos boʻlib yotsin...”.

Adabiyotshunos olim S. Mamajonovning “Uslub jilolari” (1972 yil), A. Shomaqsudovning “Muqumiy satirasining tili” (1971 yil), “O‘zbek tili stilistikasi” (1974-1981 yillar), Q. Samadovning “Oybek so‘z san’atkori” (1965yil), I. Qo‘chqortoyevning “Badiiy so‘z ustasi” (1967 yil), “Badiiy nutq stilistikasi” (1975 yil), M. Halilovning “Yozuvchi va halq tili” (1979 yil), H. Abduraymonov va N. Maxmudovning “So‘z estetikasi” (1981 yil) kabi tadqiqotlarida yozuvchi ijodidagi uslubiy hususiyatlar haqida so‘z boradi.

Shunga qaramay o‘zbek tilshunosligida badiiy nutq stilistikasini o‘rganishni tom ma’noda qoniqarli deb bo‘lmaydi. Olim U. To‘ychiyevning “...Badiiy asar tilini o‘rganish bilan muntazam ravishda shug‘ullanib kelayotgan bironta yirik olim yo‘q, hatto yirik yozuvchilarimizning tili ham hali mukammal o‘rganilmagan. Ming yillardan ortiq tarixga ega bo‘lgan o‘zbek adabiyotining muhim davrlari va boy halq og‘zaki ijodi tili haqida ham shuni aytish mumkin” degan mulohazasi hozirda ham o‘z qimmatini yo‘qotgan emas.

Yozuvchi Said Axmad: “Yozuvchini so‘z san’atkori deydilar. Kupgina kitoblarimiz ana shu go‘zal tilimizning ohanglaridan, serjilva bo‘yoqlaridan mahrum bo‘lib qolmoqda. Negadir tilshunoslarimiz yozuvchi tiliga e’tibor bermaydilar” desa, Hakim Nazir: “Adabiy munozalarda, ayrim maqolalarda mahoratdan so‘z yuritilganda, syujet, kompozisiya va hokazolar qamrab olinayapti-yu, juda muhim bir masala chetlab o‘tilyapti. U ham bo‘lsa – til masalasidir...”

Ijodiy bahslarda necha o‘nlab ldamlar so‘zga chiqadilaru, shulardan birontasi til haqida to‘xtalmaydilar, badiiy mahorat tilda qanday namoyon bo‘lganligini misollar bilan ko‘rsatmaydilar. Vaholanki, asarning tuzilishi yaxshi bo‘lsayu, tili g‘arib va g‘aliz chiqsa, bunday asarning kitobxonga ta’siri qanchalik zaif bo‘lishi aniq”- deydi.

Darhaqiqat, Alisher Navoiydan tortib Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Oybek, G‘ofur G‘ulom, Hamid Olimjon, bugungi kunning zabardast yozuvchi va shoirlaridan Erkin Vohidov, O‘tkir Hoshimov, Abdulla Oripov, Tog‘ay Murod,

Toxir Malik asarlarining tilini uslub mahoratini kengroq o'rganish, bu borada erishgan yutuqlarini jamlash, sarhisob qilish fursati allaqachon yetmadimikan?

Biz bitiruv ishimizda ushbu mavzuni tanlashimizning ikkinchi boisi ham shunda.

O'zbek tilshunosligida bu borada amalga oshirilgan ba'zi ishlarni ko'zdan kechirganda, ularda badiiy nutq to'g'risida ko'proq "obrazli", "shirali", "jozibali" atamalariga duch kelamiz. Lekin badiiy asar tili tahliliga juda va juda ham kam e'tibor beriladi<sup>1</sup>.

Umuman olganda badiiy nutq muammolari masalasi ham tilshunoslik nuqtai nazaridan, ham adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan o'rganilmog'i lozim. Zero, B. Yo'ldoshev haqli ravishda ta'kidlaganidek: "Tilni bunday o'rganish tilshunoslik nuqtai nazaridan kerakli bo'lganidek, adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan ham foydalidir. Omonim, sinonim holda so'zlarning joylanish tartibini o'rganish" aslida tilshunoslik fanining vazifasi bo'lsa-da, biroq ularning yozuvchining qanday maqsadda ishlatishini o'rganish muhimdir<sup>2</sup>.

Shu narsani alohida ta'kidlash lozimki, hozirgi kunda kitobiy til bilan adabiy so'zlashuv nutqi orasidagi o'zaro ta'sir juda kuchlidir. Buning birinchi sababi kitobiy til, uning yozma va og'zaki nutqdagi, uning kundalik turmush nutqiga, ma'ruza va dokladlar tiliga ta'sirida ko'rinadi. Bu holatni ularning og'zaki nutqida, o'zaro suhbatlarida, o'zaro munozaralarida, kitobiy munozaralarida, ayniqsa atamalardan foydalanganlarida ko'zga yaqqol tashlanmoqda.

---

<sup>1</sup> H. Nazir "Navqiron avlod oldidagi burchimiz". "Sharq yulduzi" 1976 yil 185-bet.

<sup>2</sup> Yuldoshev B. "Badiiy nutq stilistikasi". Samarqand 1982 yil 13-bet.

### III Bob. Adabiy nutq va uning uslublari.

Hozirgi kunda fan texnika shiddatli rivojlanib bormoqda. Shu boisdan Respublikamizda barcha sohalar kabi ta'lim sohasiga ham katta e'tibor berilmoqda. Ona tilimizni asrash barcha yoshlarimizning burchidir. Zero, prezidentimiz aytganlaridek “Biz ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur”<sup>1</sup>.

#### **Bir soatlik dars ishlanmasi.**


Dars mavzusi: **adabiy nutq va uning uslublari.**

Darsning maqsadi:

1. **Ilmiy:** o‘quvchilarning ongida o‘zbek adabiy tilida adabiy nutq va uning uslublari yuzasidan bilim hamda malaka hosil qilish;
2. **Didaktik:** o‘quvchilarni ezgulik, hamisha yaxshilik ruhida tarbiyalash;
3. **Rivojlantiruvchi:** yangi pedagogik texnologiya usullaridan foydalanib, o‘quvchilarni adabiy tilda so‘zlashishga o‘rgatish, hamda adabiy nutq va uning uslublarni yaxshiroq tushunib yetishga o‘rgatish.
4. **Dars usuli:** “Charpalak” usuli kichik guruhlarda ishlash.
5. **Dars jihozi:** mavzuga tegishli adabiyotlar, darslik, tarqatma materiallar, slaydlar, texnik vositalar.
6. **Dars shiori:** “Ilm – dunyoning izzati, insonlarning madori – hayoti, rahbari - najotidir” (A. Avloniy).

**Darsning borishi:** o‘quvchilar charxpalak yo‘nalishida joylashtirilgan partalarga 5 guruhga bo‘linib o‘tiradilar. Ular o‘zlariga nom tanlashlari uchun turli rebuslar tarqatiladi. O‘quvchilar o‘tilgan dars, ya’ni “Kirish suhbat, so‘zdan so‘zning farqi bor” mavzusiga mos nomlarni aniqlashadi va ularni imkon qadar shevalarda talaffuz qilishadi (topqirlar, tadqiqotchilar, zukkolar, ziyokorlar, tahlilshunoslar) hamda shu bilan guruhlar ketma-ket joylashuvi tartibiga, nomga va dastlabki bahoga ega bo‘lishadi.

<sup>1</sup> I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch”. “Ma’naviyat” nashriyoti. Toshkent 2008 yil. 87-bet.



1-chizma. Adabiy nutqning uslublari


O'tgan darsni mustahkamlashda ham noan'anaviy usulda yondashiladi. Guruhlarga Mirtemirning "Ona tilim" she'ri eshittiriladi. O'quvchilardan mazmuni so'raladi. So'ng Muhammad Yusuf she'ri, S. Nazarxon ijrosidagi "Vatanim" qo'shig'idan parcha eshittirilib, she'r muallifi va ijrochisi haqida suhbatlashiladi. Shoir hamda she'r mazmuniga doir vatan manzaralari aks etgan slaydlar ko'rsatilib, o'quvchilarning vatanparvarlik tuyg'ulari orttiriladi. Har bir guruhda bittadan til haqida she'r va maqollar tarqatilib, ma'nosi so'raladi. Ish jarayonida qo'shiqning davomi eshittiriladi. 5 daqiqadan so'ng guruhlarning bir nafardan vakili o'z she'r va maqollari ma'nosini aytib berishadi. Guruhlar ishi baholanadi, doskadagi jadvalga qayd etiladi.

Auditoriyadagi barcha o'quvchilarning o'tilgan dars yuzasidan bilim va ko'nikma hosil qilganliklari aniqlangach, yangi "Adabiy nutq va uning uslublari" mavzusi slaydlar orqali o'rganiladi.

1-topshiriq: "Adabiy til va adabiy nutq haqida ma'lumot beramiz". Bunda o'quvchilar o'zlariga tushgan adabiy til va adabiy nutqqa oid savollarga 1 daqiqa davomida javob topishadi. Vaqt tugashi signali berilgach (o'quvchilardan ikki qo'lini kaftlarini ochgan holda ko'tarib, xayrlashganday silkitib, yuzlarida tabassum-la xayrixohlik bilan boshqa jamoalarni qo'llab-quvvatlashlari so'raladi. Bundan ko'zda tutilgan didaktik maqsad, jamoalarning belgilangan vaqt tugagandan keyin ham ishlarini davom ettirishlariga yo'l qo'ymaslik va butun diqqatlarini javoblarga yo'naltirish bo'lsa, ikkinchidan, bolalarning raqib guruhlarga nisbatan tuyg'ularini do'stona xayrixohlikka aylantirishdir) har guruhdan bittadan vakil guruh ishini himoya qiladi. Barcha guruh a'zolari adabiy til va adabiy nutq haqidagi ma'lumotlarini aytib o'tishadi.

2-topshiriq "Yana imkoniyat" deb nomlanadi. Bunda charxpalagimiz ishga tushadi, ya'ni guruhlar charxpalak aylanish yo'nalishida ish varaqalarini almashishadi va qo'shni guruh ishiga yana qo'shimchalar qo'sha olish imkoniyatlarini sinab ko'rishadi. 1 daqiqadan so'ng guruhlar ishini yakunlaydi va "Yana imkon"dagi imkoniyatlarini namoyish qilishadi, baholanadi.

Charxpalak aylanib, guruhlarga 3-topshiriq “uslub (stil) so‘ziga ta’rif” beriladi. O‘quvchilar qo‘shnilari aytgan ta’riflarni to‘ldirib borishadi. Uslub so‘zi ishtirokida gaplar tuzishadi.



2-chizma.

Guruh a’zolaridan biri ishni himoya qiladi va bu o‘qituvchi tomonidan baholanadi.

Charxpalak yana qo‘zg‘aladi. 4-topshiriq “nutq uslublari haqida ma’lumot bering”. Har bir guruh bittadan uslub yozilgan tarqatma materiallarni olib javob izlashadi. Berilgan 0,5 daqiqa vaqt tugagach, ishlar baholanadi.

Charxpalak parraklari yana o‘rnidan qo‘zg‘aladi.

5-topshiriq “Matnlardagi gaplarning uslubini aniqlang”. Bunda guruhlar o‘zlariga tushgan konvertlarga yashiringan matn gaplarining qaysi uslubga xosligini aniqlashadi.

Charxpalak yana bir bor aylanib, dastlabki ishlar o‘z egalarini topadi. Guruhlar so‘nggi bosqichda 2 daqiqa vaqt davomida boshqa guruhlariga tushgan uslublariga matn tuzishadi.

Charxpalak usulida o‘tilgan darsda 5 guruhda 6 nafardan jami 30 o‘quvchi qatnashgan bo‘lsa, barchasi topshiriqlardan birining ma’suliga aylanadi. Chunki guruhlardan talabga ko‘ra, har bir topshiriq javobini alohida o‘quvchi himoyalashi shartligi, yo‘qsa, jamoa ballari kamaytirilishi uqtiriladi. Natijada o‘quvchilar guruhdagi bilimdonlargagina ishonib qolmay, hamma imkon qadar ishtirokchiga aylanadi. Maqsadimiz ham ana shu.

Uyga vazifa. Yozma manbalardan ilmiy, badiiy va rasmiy-idoraviy uslubdagi matnlarga ikkitadan misol topib yozib kelish.

## **Xulosa**

Bizga ma'lumki, badiiy til ham adabiy tilning bir ko'rinishidan iborat va u adabiy til tushunchasi doirasiga kiradi. Aslini olganda badiiy til degan kategoriya yo'q. Badiiy til deyishimiz adabiy tilning badiiy stildagi ko'rinishi yoki badiiy stilga to'g'ri keladi. Shunga ko'ra badiiy til iborasi, shoir va yozuvchilar asarlarining tili, ya'ni qahramonlar tili. Ikkinchi xil qilib aytganimizda Navoiy stili, Abdulla Qodiriy stili, Abdulla Qahhor stili, Abdulla Oripov stili kabi tushunchalarga tengdir.

Adabiy til ba'zi kishilarning nazarida go'yo milliy til va umumxalq tiliga nisbatan yuqoriroq, dabdabaliroq bo'lib tuyuladi. Buning sababi adabiy tilning qayta ishlanganligida, silliqlashganligi tufayli tovlanib ko'rinishda, uning ko'proq qo'llanishida va hamma funksional stillarning xususiyatlarini o'zida aks ettirishidadir. Lekin milliy til bilan adabiy til orasida, shuningdek adabiy til bilan badiiy til orasida uzviy bog'liqlik va doimiy o'zaro munosabat mavjud. Chunki milliy tilning bu qismida uning qandaydir xususiyatiga doimo ishlanib, o'z imkoniyatlaridan ba'zi tomonlarini adabiy tilga o'tkazib boradi, shu yo'l bilan adabiy tilning eskirgan yoki eskira boshlagan elementlari yangilana boradi, adabiy til to'ldiriladi. Boshqacha qilib aytganda, adabiy tilning o'zi milliy til bazasida rivojlanib, takomillashib boradi. Demak, milliy til adabiy tilning mustahkam poydevori, tayanchi bo'lib qoladi.

Milliy tilning quyi formalari bo'lgan mahalliy dialektlar va xalq shevalarining shevalarining ham adabiy til bilan bog'liqligi, o'zaro aloqasi doimiy hodisa sifatida davom etib turadi. O'z navbatida har bir adabiy til ham milliy tilning boshqa tomonlariga, xususan uning quyi formalari hisoblangan milliy dialekt va shevalarga kuchli ta'sir o'tkazib, ulardan bir qismini o'ziga moslashtiradi. Shunday qilib, mahalliy dialekt va xalq shevalari milliy tilning quyi formalari bo'lib hisoblanish bilan bir qatorda, ayni vaqtda ular adabiy tilning ichki rivojlanishi imkoniyatlarini tashkil qiladi. Shuning uchun ham mahalliy dialekt

va xalq shevalariga milliy adabiy tilning ichki manbai, ikki taraqqiyot resursi va tayanchi sifatida avaylab munosabatda bo'lish talab qilinadi.

Shuni ham alohida qayd qilish kerakki, hozirgi o'zbek adabiy tiliga yuqorida sanab o'tilgan uchta katta lahjaning (Toshkent, Farg'ona, Andijon) hammasini ham ma'lum darajada asos bo'lgan deb hisoblashimiz va xususan, hozirgi o'zbek adabiy tilining rivojlanishida o'zbek milliy tili tarkibidagi ko'zga ko'rinarli mahalliy dialekt va shevalarning o'ziga yarasha ishtiroki bor deyishimiz mumkun.

Holbuki, keyingi vaqtlarda ba'zi bir kishilarning tushunchalarida ana shunday hol yuz berayotganday bo'lib tuyulmoqda. Bunday holga keng yo'l qo'yib berilsa, birinchidan, u o'zbek adabiy tilining shakllanishi, rivojlanishi va uning ichki manbalari to'g'risida ko'pchilikda noto'g'ri tasavvur uyg'onishga sababchi bo'ladi. Ikkinchidan, bunday hol o'zbek adabiy tilining bundan keyingi davrda shevalar hisobiga rivojlanishining yo'lini bog'lab qo'yishga olib keladi. Oqibatda o'zbek adabiy tilining kelgusi rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Milliy til, adabiy til va mahalliy dialektlar orasida doimo o'zaro munosabat va bog'liqlik bo'lish bilan bir qatorda ular orasida ma'lum farqlar va o'ziga xos chegaralar haqida ham har bir tilshunos aniq tasavvurga ega bo'lishi kerak.

Ulug' tilshunos olim Xudoyberdi Doniyorovning quyidagi fikri bu tasavvurimizni yanada boyitib, o'zbek adabiy tilining asosiy manbai ekanligidan dalolat beradi. «Sirasini aytganda, qipchoq dialektlarining, xususan, sharqiy guruh shevalarining leksikasi o'zining rang-barangligi, boyligi, ohori to'kilmagan keng stilistik imkoniyatlarga egaligi, turli-tuman o'ziga xos tomonlari bilan kishining e'tiborini o'ziga beixtiyor tortadi, kuzatuvchini o'ziga moyil qiladi, rom etadi»<sup>1</sup>, - deganda juda haqli ekanliklarini hayotning o'zi tasdiqlab turibdi.

---

<sup>1</sup> X.Дониёров,Б. Юлдошев «Адабий тил ва бадиий стил». Тошкент-1988 й. 18-бет

Haqiqatdan ham, ana shu boylikning bir qismi ma'lum darajada adabiy tilimizning va badiiy stilimizning mulkiga aylanib borayotgan bo'lsada, uning katta bir qismi hali o'zlashtirilmagani aniq, u o'zining tadqiqotchilarini kutmoqda.

Darhaqiqat, tilshunoslikning badiiy til muammosi bilan bevosita bog'liq bo'lmagan sohalari ham anchagina bor. Ana shular jumlasiga morfologiya va sintaksis masalalarini, til va tilshunoslik tarixini, fonetika, orfografiya, orfoepiya, leksikologiya, grammatika masalalari ustida ishlash, xalq shevalarining milliy adabiy til bilan munosabatini va adabiy tilga qo'shgan hissasini o'rganish ayni vaqtda qilinadigan asosiy ilmiy ishlardan biridir.

O'zbek adabiy tilining stillari haqida fikr yuritganimizda "stilistika" fransuzcha stilius stil (uslub) so'zidan olingan bo'lib, birinchi marta 1840 yilda qo'llangan. Stil so'zi ilmiy atamadir. Zero, atamalar oddiy so'zlarga nisbatan o'zlarining ma'no semantik xususiyati bilan farqlanishi kerak. Lekin stil atamasi boshqacha xususiyatga ega, ya'ni stil faqat lingvistik doirasiga emas, balki adabiyotshunoslik va san'atshunoslik doirasiga ham kiradi. Shuningdek, u oddiy so'z sifatida ham tilda ko'p qo'llaniladi. Masalan, "ish stili (uslub)", "Boshqarish uslubi", "tarbiyalash uslubi", "Erkin uslubda" va boshqalar.

Stil tushunchasini tasviriy vositalar tizimi, san'atning o'ziga xos yo'nalishi degan ma'noda san'atshunoslik fani tomonidan keng qo'llanilmoqda.

Shunday qilib, uslub (stil)ni adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tushunish badiiy asarga yoki aniq yozuvchiga qaratilgandir. Til stillari yoki funksional stillar hozirgi davrda stilistika fanining markaziy atamasi bo'lib qoldi. Lekin bu atamaning aniq chegaralari hali ishlab chiqilganicha yo'q. Shu bo'yicha tadqiqot olib borgan professor Iristoy Quchqartoyev ham o'zbek adabiy tilining stilistik ixtiloshlashuvi, uning funksional uslublari ilmda hali qat'iy chegaralab berilmaganligini o'qtiradi. Shu bilan birga, olim o'zbek adabiy tili doirasida badiiy, ilmiy, ijtimoiy-siyosiy uslub (stil)larning o'ziga xos xususiyatlari, ularni bir-biridan farqlaydigan belgilar ma'lum darajada aniq sezilib turishini aniq misollar asosida ko'rsatishga intiladi. Shunga ko'ra maktab darsliklarida ham

keyingi yillarda stilistika, o‘zbek tilining funksional stillari orasida anchagina o‘rganilgani badiiy nutq stilidir.

Ma’lumki, tilimizda mavjud bo‘lgan o‘r, to‘r, o‘t, bo‘z, o‘z, bo‘l, to‘la so‘zlarining ham biri til oldi yoki til orqa qismida talaffuz qilinishiga qarab har xil eshitiladi va kamida ikki xil ma’no beradi. Masalan, o‘r so‘zi til oldida talaffuz qilinsa, sochni o‘rmoq, yuqorilamoq, va o‘jar ma’nolarini ham beradi. Bu so‘z tilning orqa qismida talaffuz qilinsa, sochni o‘rmoq, bug‘doy o‘rmoq; to‘r so‘zi til oldida talaffuz qilinsa uyning to‘ri ma’nosini bildiradi. O‘t so‘zi til orqasida talaffuz qilinsa olov, maysa ma’nosida ishlatiladi. Shuningdek, to‘l so‘zi tilning old qismida talaffuz qilinsa qo‘zilatish ma’nosini bildiradi. U tilning orqa qismida talaffuz qilinsa, buyruq fe’lini bildiradi; o‘tkazmoq fe’l i fonetik stilistikasi o‘zbek adabiy tili talaffuzining xuddi ana shunday masalalarini tartibga solishga bevosita ishtirok etishi lozim.

Darhaqiqat, bu hol shu unlining til oldi yoki til orqa qismida aytilishiga bog‘liqdir. Chunki u til oldi qismida aytilsa, yumshoq, mayin bo‘lib eshitiladi. Shu tufayli bir ma’noni anglatadi. Tilning orqa qismida aytilsa, qattiq eshitiladi, boshqa bir ma’noni bildiradi. Demak uning til oldi yoki til orqa ekanini anglash lozim.

Shunday qilib, o‘zbek og‘zaki adabiy tilidagi til oldi o‘ va til orqa o‘ tovushlari ham mustaqil fonemalardir. Chunki ular ham o‘ziga xos aytilish, o‘ziga xos eshitilish va alohida ma’no ajratish xususiyatiga ega.

Demak, fonetik stilistikani ham fan sifatida qanchalik tez o‘rgana boshlasak, tilimiz uchun, uning taraqqiyoti va rivoji uchun shuncha katta foyda beradi.

### Foylalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. I.A.Karimov “Adabiyotga e’tibor kelajakka, ma’naviyatga e’tibor”. “O‘zbekiston” Toshkent 2009 yil.
2. I.A.Karimov “Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”. Toshkent 1999 yil.
3. I.A.Karimov “Bizdan ozod va obod vatan qolsin” Toshkent 1996 yil.
4. I.A.Karimov “Madaniy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir”. “Fidokor” gazetasi muxbiri savollariga javoblar. Toshkent. “O‘zbekiston” 2000 yil.
5. I.A. Karimov “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q”. Toshkent 1999 yil.
6. I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch”. “Ma’naviyat” nashriyoti. Toshkent 2008 yil.
7. Axmedov A. “Til boyligi” Toshkent, O‘zKP birlashgan nashriyoti, 1968 yil.
8. Aristotel. Poetika (proeziya san’ati haqida). Toshkent 1980 yil.
9. Berdiyev H., Yo‘ldoshev B. “O‘zbek adabiy tilining omillari haqida” 1981 yil.
10. Doniyorov X. va boshqalar. “Adabiy til va badiiy stil”. “Fan”. Toshkent 1988 yil.
11. Doniyorov X. “Alisher Navoi va o‘zbek adabiy tili”. Toshkent. G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti 1972 yil.
12. Doniyorov X. “O‘zbek tilining Baxmal shevasi”.
13. Fayzullayev B. “Dialektizmlar va ularning badiiy adabiyotdagi o‘rni” – “O‘zbek tili va adabiyoti” 1977 yil.
14. Hojiyev A. “O‘zbek milliy adabiy tilining shakllanishi va eski o‘zbek adabiy tiliga munosabati”. “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali. 1987 yil, 2-son.

15. Ibrohimov S. “Adabiy talaffuz madaniyati”. Toshkent, O‘zbekiston, 1972 yil.
16. Ibrohimov S. “Nutq madaniyati va adabiy talaffuz haqida” Toshkent, “Fan” nashriyoti, 1972 yil.
17. Ibrohimov S. “O‘zbek milliy tilining nutq madaniyati masalalari”. O‘zbek tili nutq madaniyatiga bag‘ishlangan Respublika tilshunoslik konferensiyasi. Toshkent, “Fan” nashriyoti, 1969 yil.
18. Kollektiv. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” II qism. Toshkent 1980 yil.
19. Mukarramov M. “Hozirgi o‘zbek adabiy tilining stili” Toshkent. “Fan”. 1984 yil.
20. Nazarova H. “Bobur va o‘zbek adabiy tili”. Toshkent, 1971 yil.
21. Nazir H. “Navqiron avlod oldidagi burchimiz”. “Sharq yulduzi” 1976 yil.
22. Oripov O. “Adabiy til va uslub haqida” – til va adabiyot masalasi. S.M. Kirov nomidagi Leninobod DPI ilmiy asarlari, 1964 yil.
23. Qodirov M. va boshqalar 8-sinf “ona tili” darsligi Toshkent “CHO‘lpon” nashriyoti 2010 yil 2-nashr
24. Qo‘ng‘urov R., Karimov S., Qurbonov T. “O‘zbek tilining funksional stillari” Samarqand 1985 yil.
25. Qo‘ng‘urov R. “O‘zbek tili grammatik stilistikasidan ocherklar”. Samarqand 1975 yil.
26. Rasulov T. “Badiiy asar qanotlari”. Toshkent. G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1977 yil.
27. Toshaliyev T., Jo‘raboyeva M. “Til va uslub haqida”. “Toshkent oqshomi” 1969 yil.
28. Tursunov U., O‘rinboyev B. “O‘zbek adabiy tili tarixi”. Toshkent 1982 yil.
29. Tursunpo‘latov M. “So‘zlashuv nutqining asosiy belgilari” – o‘zbek tilining ayrim masalalari. Toshkent, 1979 yil.

30. Yo‘ldoshev B. “Badiiy asar tili stilistikasi va nutq madaniyati masalalari” to‘plami. Samarqand, 1980 yil.
31. Yo‘ldoshev B. “Badiiy nutq stilistikasi”. Samarqand, 1982 yil.
32. Zafarov S. “Til madaniyati haqida”. “Toshkent haqiqati” 1967 yil.
33. O‘rinboyev B. “O‘zbek so‘zlashuv nutqi”. “Fan” nashriyoti. Toshkent 1982 yil.
34. O‘rinboyev B.I. “O‘zbek tili so‘zlashuv nutqi sintaksisi masalalari” 1974 yil.
35. Sh. Shoabduraxmonov va boshqalar. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. I qism. Toshkent 1980 yil.
36. Internet saytlari:
  - [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
  - [www.TDPU.uz](http://www.TDPU.uz)
  - [www.Zeonet.uz](http://www.Zeonet.uz)